

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
Xorojiy sharq mamlakatlari adabiyoti kafedrası

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 891.5

BBK: 83.3 (5 IRN)

K.18

QALANDAROV MIRZAJON SITMAMATOVICHning
“HOFIZ G‘AZALLARIDA RAMZLAR TIZIMI
(O‘simliklar misolida)”

5A220101 – Adabiyotshunoslik (Eron adabiyoti)
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. A.Quronbekov

Taqrizchilar: f.f.n., dots. A.Hazratqulov

f.f.n., dots., S.Sotiboldiyeva

TOSHKENT – 2010

Magistrlik dissertatsiyasi himoya qilinishiga ruxsat etildi.

Magistratura bo'limi

boshlig'i

f.f.n., Saydazimova U.T.

Mundarija

Kirish	4
I bob.....	11
Gʻazal - badiiy matn, uning tahlili. Oʻsimlik ramzlari tasnifi.	11
II bob	21
Oʻsimlik ramzlarining denotativ va konnotativ maʼnolari.....	21
III bob	54
Oʻsimlik ramzlarining tasavvufiy maʼnolari	54
Xulosa.....	71
ADABIYOTLAR ROʻYXATI	77

Hofiz g'azallarida ramzlar tizimi (o'simliklar misolida)

*Hofiz shunday shoirki, uning yuz ko'rsatib, xushbo'y hid taratib turgan anvoyi gullar misoli
g'azallari barcha xalqlar shoir va yozuvchilarini ham qayta-qayta ilhomlantiradi.¹*

N.G. Chernishevskiy

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har bir xalq adabiyotini eng yuqori cho'qqilarga olib chiqqat dahol san'atkorlar bo'ladi. Bunday iste'dodlarning ijodiyoti qancha vaqt, zamon o'tmasin, hech qachon eskirmaydi va millatni ruhlantiradigan g'oyaviy-badiiy qimmatini aslo boy bermaydi. Hofiz Sheroziy xuddi shunday san'atkorlardan biridir.

Ma'naviy hayotimizdagi katta o'zgarish va yangilanishlar milliy merosimizni keng o'rganish, tadqiq qilishda ham e'tiborli yutuqlarni qo'lga kiritishga yo'l ochdi. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning "Eng muhim vazifa shundan iboratki. O'zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz avliyolarimiz qoldirgan bebaho merosni avaylab-asrab, yanada boyitishimiz, ulug' ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo'lmog'imiz darkor"², degan so'zlari adabiy merosga diqqat-e'tiborning ortganligidan dalolatdir. Hofiz Sheroziy kabi butun jahonshumul shoirlar, ularning ijodiyoti madaniyatlar orasida ishonch ko'priklaridir. Mushtarak madaniyat darg'asi Hofiz Sheroziy ijodini o'rganish, yurtimizda jahon adabiyotni o'rganishga bo'lgan hissasiga bir "g'isht" bo'lishi bilan birga o'zimizning qadimiy merosimizning qirralarini maxsus tadqiqi uchun dastutulamal vazifasini o'taydi.

Yana Prezidentimiz I.A.Karimovning: «Jahon madaniyati yutuqlariga zo'r hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi teranligi va chuqurligini anglab olinganligi, har bir avlodning o'z o'tmishiga, olijanob milliy

¹ Bu haqda qar.: Садои Шарқ.моҳнома. Душанбе: 1971.№4. 96-б.

² Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. G'afur G'ulom. Toshent. 2001. – 102-b

va diniy an'analariga hurmat bilan qarash, ularni asrab-avaylash ruhida tarbiyalanayotganligi, ayni chog'da hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi va ma'naviyati qadriyatlarini o'zlashtirish va ularga oshno bo'lish zarurligi ravshan anglab yetilganligi – mana shularning hammasi hayotbaxsh bir zamindirki, bizning yangilanish va xalqimizning milliy o'zligini anglashini oshirish, aholining siyosiy yetukligi va faolligini kuchaytirish borasidagi siyosatimiz mana shu zaminga tayanadi»³ degan fikrlari har bir avlod hayot tamoyillarining asoslari haqidadir. Shuning uchun ham mutafakkir shoir ijodiyotini o'rganish bevosita millat tarixi madaniyati, badiiy zavqi, ruhiyat va urf-odatlarini o'rganishga keng yo'l ochadi. Shoir ilgari surgan g'oyalar o'zlikni anglash, shaxs axloqi va kamolotiga xizmat qilgan ekan, bu har doim muhim va dolzarb masala bo'lib qolaveradi.

Zahmatkash olimlarning sa'y harakatlari tufayli hofizshunoslikda shu vaqtga qadar ulkan ishlar amalga oshirildi. Biroq bugungi kunda hofizshunoslik oldida bir qator vazifalar turibdi. Shoirning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy-ma'rifiy qarashlarini ifodalashga yo'naltirilgan asosiy poetik obrazlarni tadqiq etish shular jumlasidandir. Bu esa Hofiz lirikasining botiniy xususiyatlarini o'rganishga yaqindan yordam beradi. Ma'lumki, badiiylik asoslaridan biri ramziylik bo'lib, xalq tafakkuri, og'zaki ijodining boy an'analari asosidagi o'simlik simbolikasi yozma adabiyotda o'simlik bilan aloqador obraz, timsol, ramzlar tizimini vujudga keltirdi. Fors mumtoz adabiyotidagi ushbu tizim fors-tojik adabiyoti, islom va tasavvuf g'oyalari zaminida yanada takomillashdi.

Ushbu tadqiqot Xoja Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziyning "Devon"idagi ramzlari tizimini o'rganishga bag'ishlangan. Zero, ramzlar Hofiz ilgari surgan g'oyalarning bosh ifodachisi, shoir she'riyatining yetakchi an'anaviy obrazlaridir. Bu ramzlar tizimi va g'oyaviy badiiyatini tadqiq etish Hofiz she'riyatining mazmun-mohiyatini keng mushohada qilish va muhim xulosalarga kelishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda, ulug' shoir shaxsiyati, uning ruh va his tuyg'u olamini haqqoniy anglashga yaqindan yordam beradi. Alohida bir

³ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. Toshkent. O'zbekiston.1996.274-b.

an'anaviy poetik ramzlar tizimini talqin va tasvirlashdagi Hofiz san'atkorlik mahoratini ko'rsatishga xizmat qiladi.

X-XV asrlar fors mumtoz shoirlari ijodida o'simlik simvolikasi bilan bog'liq obrazli tasvirdan keng foydalanildi. Eron mumtoz adabiyotida g'azalsarolik, uning badiiyati va shu o'rinda simvolika Hofiz ijodida o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishdi. Hofiz ijodi, xususan, lirikasida o'simlik simvolikasi lirik qahramon obrazini gavdalantirish, uning o'y-xayoli, dunyoqarashi, atrof-muhitga munosabatini ifodalash, psixologik holatini tasvirlash jihatidan, ayniqsa, yorqin namoyon bo'ladi. O'simliklar asosidagi simvolik tasvir shoir lirikasida nafaqat badiiy usul, balki ijodiy metod va lirik uslubning uzviy qismiga aylangan.

Uzoq asrlik mumtoz adabiyotimiz namunalarini tadqiq va tahlil qilganda, ularning ramziy – majoziy “qatlam” va haqiqatlariga ham duch kelinadi. Bu fikr o'simlik semantikasi va simvolikasiga ham bevosita daxldor.

Darhaqiqat, o'simlik zamirida yashiringan u yoki bu ma'no va haqiqatni anglamasdan, badiiy matnni tahlil qilish ancha mushkul. Sharq she'riyatida qo'llanilgan o'simliklar faqatgina aniq bir o'simlik ma'nosinigina emas, balki aksariyat paytlarda biror ramziy – ilohiy, falsafiy, dunyoviy mazmunni ham ifoda etgan. O'simliklar o'simlik vazifasini bajarishdan tashqari, turli qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq ravishda ramziy ma'nolarga ham ega. Qadimgi davrlarda o'simliklarni ilohiylashtirish nuqtai nazari ham mavjud bo'lgan. Shunday qilib, jahonning turli mamlakatlarida, turli vaqtlarda har xil o'simliklar muqaddaslashtirilgan.

O'simlik ramzlaridan mohirona foydalanish ijodkordan din, mifologiya, falsafa, tarix, tasavvuf kabilarga doir bilimni talab qilganidek, har bir o'simlik ortida berkingan mazmunlarni ochish, to'g'ri talqin qilish uchun ham ma'lum tayyorgarlik va malaka lozimdir.

O'simliklarni adabiyotda ishlatilish tarixi uzoq davrlarga borib taqalishi ayondir. O'simliklar insoniyat hayotining ilk davridan tiriklik manbailaridan biri

bo'lishi sababidan uning ibtidoiy insoniyat hayotidagi roli anchayin yuqori sanaladi.

Xalqning dunyoqarashi va estetik tafakkuridan o'rin olgan o'simliklar muqaddasligi haqidagi turli xil qarash asta – sekinlik bilan yozma adabiyotga ham kirib kela boshladi. Sharq mumtoz she'riyati, jumladan, fors mumtoz she'riyatida ishlatilgan o'simliklarning ramziy mohiyatini ochish, o'simliklarning sirli – silsilaviy ifodalarini yoritish, o'simliklar vositasila ifoda etilajak fikrlar bayonida badiiy tasvir usullaridan foydalanishda ijodkor mahoratini ko'rsatib berish mavzuning yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Hofiz Sheroziy adabiy merosi va dahosini o'rganish va keng miqyosda targ'ib etish uzluksiz davom etadigan ilmiy-amaliy jarayondir. Hofiz Sheroziy o'zining betakror she'riyati bilan forsiy xalqlar adabiyotining shuhratini dunyoga taratdi. Hofizshunoslikda shoir lirikasiga juda keng e'tibor qaratilishining sabablaridan biri ham ana shudir. Bugunga qadar Hofiz lirik merosiga bag'ishlangan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirildi. O'zbek olimlaridan Quronbekov Ahmadjon, Azimov M., rus tadqiqotchilaridan Braginskiy I.S.⁴, Yan Ripka, tojik tadqiqotchilaridan Qurbon Vose'⁵, Ayniy K.,⁶ Yevropa tadqiqotchilaridan Annimariya Shimmel⁷ xonim kabilar olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Lekin Hofiz Sheroziyning alohida bir ramzlar guruhi ma'nolari talqinidagi tajriba va yutuqlari maxsus tekshirilmagan. Tadqiqotda shu masala (o'simlik ramzlari misolida) imkon qadar ochib berishga harakat qilindi. Mazkur tadqiqotda manba sifatida Hofizning "Devon"i olindi.

Tadqiqotning maqsadi. Ishdan ko'zlangan asosiy maqsad Hofiz Sheroziy g'azaliyotidagi o'simliklarning ma'no miqyoslari, unga aloqador ramziy obraz va timsollarni tadqiq etish, o'simliklar simbolikasining lirik obraz va qahramon psixologik holatini tasvirlashdagi o'rnini belgilashdan iborat.

⁴ Брагинский И.С. Очерк о Хафизе, его эпохе и творчестве. - Из истории персидской и таджикской литературы. – Москва, 1972.

⁵ Курбон Восеъ. Ойини ринди ё маслаки Хофиз. Душанбе:Ирфон, 1991.

⁶ Айний К. Хофиз ва «тарзи сухани Хожу» // Жашинномаи Хофиз. Мажмӯа. – Душанбе, 1971. С. 98

⁷ Shimmel.A.Hafiz and his critics.Studies in Islam. Quarterly Journal of the Indian Institute of Islamic Studies. Vol 16.1979

Ma'lumki, Sharq mumtoz she'riyati mazmun va shakl, poetik tasvir yo'li, vosita, obrazlar olami e'tibori bilan o'ziga xos bir she'riyatdir. Adabiyotshunoslik ilmida e'tirof etilganidek, bu she'riyatda ramziy va majoziy tasvir ustuvor yo'nalish va xususiyatni tashkil etadi. Shuning uchun unda so'z, timsol, o'simlik, ohang bilan bir qatorda, o'simliklar vositasida ilgari surilgan haqiqatlarning simbolik ifodalari ham alohida o'rin egallaydi. Agar Eron mumtoz adabiyotidan joy olgan o'simliklar "tilga" kiritilsa, o'quvchining ko'z o'ngida yangi bir ma'no, mohiyat va sirlar olami ochiladi. Adabiyotda buning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

Tadqiqotning vazifalari:

Tadqiqotning vazifalari qilib quyidagilar tanlandi:

- 1) G'azaliyotning to'la matni asosida ma'lumotlar mahzani yaratiladi va shu asosda me'zon lug'ati va jome' lug'at (konkordans) ishlab chiqiladi.
- 2) Konkordans asosida har bir so'z ishtirok etadigan semantik maydonlar aniqlanadi.
- 3) Aniqlangan semantik maydonlardan o'simlik semantik guruhi tanlanadi.
- 4) Muayyan so'z hosil qilgan baytlarda o'sha so'zning yuzaga chiqayotgan ma'no belgilari ierarxiyasi tuzib chiqiladi.
- 5) Muayyan so'z qatnashgan she'riy san'atlar aniqlanadi va bu ma'no birliklarining til doirasida, shoirning shaxsiy va ijtimoiy hayot hodisalariga bog'liq ma'no belgilari aniqlanadi.
- 6) Muayyan so'zning har bir holatda hosil qilgan irfoniylar ma'no belgilari aniqlanadi.

Tadqiqotning ob'ekti. Ishni amalga oshirishda Hofiz "Devon"i va uning kompyuter dasturlashtirilgan nusxasidan manba sifatida foydalanildi.

Shuningdek, "Hofiznoma"larga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari.

I.A.Karimovning milliy istiqlol mafkurasini yaratish, boy madaniy merosimizni o'rganish, asrash va targ'ib qilish borasidagi dasturiy xarakterdagi fikr-tavsiyalari, shuningdek, professor A. Quronbekov, B. Nazarov, N. Komilov, I.

Haqqul kabi olimlarning mumtoz merosni tadqiq etish, simvolikaning badiiy xususiyatlari haqidagi ilmiy tadqiqotlari dissertatsion ishimizning metodologik asosi bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, eroniy, rus va xorij olimlaridan Xo'rramshohiy, Y.E. Bertels, M.L. Reysner, M.N Osmanov, kabi olimlarning tadqiqotlariga tayanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Hofiz lirikasining g'oyaviy-badiiy sirlarini ochishda o'simliklarning ham o'ziga xos o'rni va vazifasi bor. Ammo bu sohada maxsus bir ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan. Dissertatsiyada esa xuddi shu masala ilk marta monografik planda tadqiq etilgan. Ishning yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Hofiz lirikasidagi o'simlik bilan bog'liq simvolika uning obraz, ramzlari mohiyatini anglashda ochqich vazifasini o'taydi. O'simlik semantikasi, uning asarlari obrazlar tizimida tutgan o'rni belgilamasdan turib, uning g'oyalari olamiga kirib borish mushkul. Aynan shu holat ishning ilmiy yangiligini belgilaydigan omillardan biridir;

- o'simlik – Hofiz lirikasi, badiiy tafakkurining asosiy unsurlaridan biri. Ishda shoirning obraz yaratish mahorati o'simlik bilan bog'liqlikda ochib berilgan, shoirning voqelikka munosabati qator hollarda o'simliklar orqali ifodalanishi ilmiy dalillangan;

- o'simlik simvolikasining shoir g'azallarida qo'llanilishi, xarakterli belgilari, an'ana va novatorlik kabi masalalarning yoritilishi ko'p jildli fors adabiyoti tarixini yaratishda muayyan material hisoblanadi, darslik va o'quv qo'llanmalarni yangi materiallar bilan boyitadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ilmiy tadqiqot mumtoz adabiyot matnlari tarkibida yashirin qolib kelayotgan g'oyaviy-badiiy sir va haqiqatlarni yanada yorqinroq ochish, o'simliklarga daxldor ma'no-mohiyatni to'g'ri hamda kengroq mushohada qilishga imkon beradi. U kelgusida yaratilajak monografik tadqiqotlar va ta'limning turli bosqichlarida o'quv qo'llanmalar yaratishda yordamchi manba vazifasini bajarishi mumkin. Dissertatsiya fors va fors-mumtoz adabiyotiga oid tadqiqotlar, ilmiy-ommabop qo'llanmalar uchun ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy jihatlari bilan foydalidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalari asosida oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga maxsus kurs va seminarlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi – 78 bet.

I bob.

G'azal - Badiiy matn, uning tahlili. O'simlik ramzlari tasnifi

Avvaldan ma'noga ega bo'lgan til birliklari badiiy asarning lisoniy to'qimasini shakllantirar ekan, ular ijodkorning badiiy mahoratiga uyg'un ravishda yana yangi, o'ziga xos badiiy ma'no- mazmunlarni inkishof qiladi.

Tildagi o'sish-o'zgarishlar, adabiy til va umumxalq tili munosabatlari kabi masalalarni o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan yo'nalishni lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi yo'nalishni esa stilistik aspekt tarzida talqin qilganlar⁸.

Tildagi o'zgarishlar, evrilishlarning eng asosiy ko'zgusi chinakam san'at asarlari hisoblanadi.

Jahon adabiyotning eng yuksak san'at asarlari namunalari qatoriga o'zidan "guldastalar" taqdim qilgan, takrorlanmas janrlaridan biri g'azaldir.

G'azal-badiiy asardir, badiiy matndir.

Badiiy asar tilini nutqning funktsional uslublaridan biri – badiiy uslubning **namoyon bo'lishi tarzida** o'rgansh ham muhim va zaruriy yo'nalish bo'lib, unda, ta'bir joiz bo'lsa, **tirik tilning o'ziga xos, yozuvchining individual mahorati** mahsuli sifatidagiva ayni paytda uning "**men**"i ham o'z ifodasini topgan **harakati** o'rganilmog'i lozim⁹.

G.O. Vinokur tilshunoslida ancha eskidan tilning kommunikativ va ekspertiv vazifalari farqlana boshlaganini ta'kidlar ekan, fikrining dalili sifatida olmon tilshunosi G. fon der Gabelentsning 1891 yilda nashr etilgan kitobidagi quyidagi qarashini keltiradi: "Til fikrining bo'laklarga bo'lingan holdagi ifodasi,

⁸ Doniyorov X. Mirzayev S. So'z san'ati. – Toshkent: O'zadabiynashr. 1962.173-174-b.

⁹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent: Fan. 2008. 10-b.

fikr esa tushunchalarning bog'lanishidir. Lekin inson tili faqat bog'lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarigina emas, balki so'zlovchining o'z fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi; men faqat nimanidir aytishnigina emas, balki o'zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to'yintirgan holda psixologik omil qo'shiladi"¹⁰.

Sir emaski badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisa. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g'oya-fikr-mazmunni tushunish, anglash shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o'ziga xos, goh ochiq, goho yashirin, turli ishoralar, tagma'nolar, kosa tagidagi nimkosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma'nosini to'g'ri anglash ma'naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo'ladi. Har qanday matnning mazmunini idrok etish uchun bundan tashqari ayni paytda badiiy matnning o'ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo'ladi.¹¹

Adabiy tilda 1-darajali estetik vazifa, badiiy adabiyot tilida esa oliy darajali estetik vazifa namoyon bo'ladi. Badiiy matnda fikrning obrazli, ko'p ma'noli ifodasi 1-planda turadi.¹²

Vinogradov: Bu ilmiy va badiiy tafakkurning o'ziga xosligi bilan aloqadordir, ya'ni ilmiy tafakkurda ijodiy fantaziya mahsuli sifatidagi fikrlar harakati abstract, umumiy formulalarda ifoda topgan tushunchalarni yuzaga keltiradi. Badiiy tafakkurda esa ijodiy fantaziya badiiy butunlik yaralishi jarayonining qudratli harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi, bu fantaziya konkret va ayni paytda ko'p ma'noli obrazlar va ramzlarning tug'ilishiga olib keladi. Ilmiy matn individual ekspressiyadan holilikka intiladi, badiiy matn esa ayni shu individual ekspressiya va boshqa tasvir vositalarisiz mavjud bo'la olmaydi¹³

¹⁰ Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М., Высшая школа, 1991. С. 44.

¹¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent: Fan. 2008.27-b.

¹² Феддеров А.И. Образная речь. – новосибирск. Наука, 1985. С. 11

¹³ Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М. Высшая школа, 1981. С. 120

Ayrim tadqiqotchilar simvolni (ramz) badiiy matnning asosiy birligi deb hisoblaydilar va hatto badiiy matn semantikasini tadqiq etishning mazmuni simvollarni tahlil qilishdan iborat, chunki badiiy matn nobadiiy matndan simvolizmga ko'ra farqlanadi" degan tezisni asoslashga harakat qiladilar, bugina emas, hatto ko'chimlar (metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi) simvol bo'lmaganligi uchun ularning badiiy matndagi o'rnini shubha ostiga oladilar.¹⁴

Simvol –ko'chimlar (troplar) nazariyasidagi alohida muammo.¹⁵

Simvol (yun. Sumbolon – shartli belgi so'zidan) – ramz, simvol – obrazli tafakkur mahsuli. Ramz o'xshatish, istiora (q. metafora) ning o'ta barqarorlikka, hamma tomonidan bir xil tushunilishiga erishish oqibatida yuzaga keladi...

Demak, simvol obrazli ifodaning bir ko'rinishi bo'lib; badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va narsalarni ifodalash uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'z va so'z birikmasidir.¹⁶

Badiiy matnning quyidagi mazmunli turlarini belgilash mumkin bo'ladi:

1. Hikoya mazmunli matn
2. Tasviriy matn
3. Izohli matn
4. Didaktik matn.
5. Xabar mazmunli matn.
6. Buyruq–istak mazmunli matn.
7. Hissiy ifoda mazmunli matn.

Shuni ham ta'kidlab o'tmoq joizki, ushbu turlarning faqat bittasi asosida shakllantirilgan badiiy matnni kamdan-kam hollarda uchratish mumkin bo'ladi.

¹⁴ Бакиева Г.Х. Лингвистические основы анализа художественного текста автореф. Дис...д-р. Фил. Наук. – Ташкент, 1993. С. 9.

¹⁵ Шульская О.В. О символе в поэзии А. Межирова и У. Винокурова//лингвистика и поэтика. – М.: Наука. 1979. С.256

¹⁶ Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.-Toshkent. O'qituvchi, 1983. 293-294-betlar.

Badiiy asar tarkiblanish jihatidan ham, mazmun jihatidan ham o'ta murakkab tuzilishga ega bo'lganligi bois unda matnning barcha mazmuniy turlarini yoki ma'lum bir turning ayrim xususiyatlarinigina uchratish mumkin. Didaktemalar matn tashqarisida avvaldan tayyor holda mavjud bo'ladi.¹⁷

Intertekstuallik – muayyan badiiy matn tarkibida o'zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir.

Bunday holatlarda yozuvchining yaxlit estetik maqsadi uchun asosiy matn bilan bir qatorda intermatn sifatida olib kiritilgan qismgina emas, balki hatto bu qismning butun shakli ham ishga tushadi. Shuning uchun ko'pincha muallif asosiy matn ichida u yoki bu tarzda mazkur manbani bildirishga harakat qiladi.

Badiiy matnda intertekstuallikning yuzaga kelishida adabiyoshunoslikda reminissensiya deyiladigan usul ham alohida o'rin tutadi. Biror asardagi ibora yoki obrazli ifoda boshqa asarga olib kirilar ekan, u intermatn maqomini oladi, chunki bunday ibora yoki ifoda yaxlit asarni, qolaversa uning muallifini tamsil etadi.¹⁸

Shibliy No''moniy Hofiz ijodiga bag'ishlangan ocherkida Hofiz g'azallari orasida o'zidan oldingi zamondoshlari ayniqsa Xoju Kermoniy va Salmon Savajiy she'rlariga ko'plab mosliklarni topadi. Shibliy No''moniy izidan E. Broun bevosita o'z o'tmishdoshlariga "javob"ini to'liq analiz qiladi.¹⁹ Eroniy tadqiqotchi Xurramshohiy ham Hofiz o'tmishdoshlarining shakl va mazmun jihatidan ta'sirini sanaydi (Sanoiy, Anvari, Xoqoniy, Zahir Faryobiy, Nizomiy, Attor, Aroqiy, Sa'diy, Nazoriy Qahistoni, Uhadiy Marog'aiy, Xoju, Nosir Buxoriy, Salmon, Sovajiy, Kamol Xo'jandiy)²⁰.

Badiiy matnni tushunish, unda aytilmoqchi bo'lgan fikr g'oyani tugal anglab yetish, to'lasicha estetik idrok etish u qadar ham oson ish emas. Muallifning aytmoqchi bo'lgan gapi badiiy matnda butunlay ochiq yalang'och bir tarzda, ikki

¹⁷ Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Fan. Toshkent. 2008. 111-b.

¹⁸ Yo'ldoshev M. ko'rsatilgan asar. Fan. Toshkent. 2008. 103-136-betalar

¹⁹ Рейснер М.Л. Эволюция классической газели на фарси (X-XIV века). М.: Наука. 1989. с.174

²⁰ خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385. ص. 40-90

karra ikki to'rt qabilida ifodalanmaydi. Badiiy matnda muallifning asosiy gapi yashirin, turli ishoralar vositasida, obrazlar, ko'chimlar, tagma'nolar kabi badiiyatning o'ziga xos unsurlari orqali beriladi. Aytish mumkinki, asosiy mazmunning implitsitligi badiiy matnni nobadiiy matnga zidlovchi omillardan biridir. Dunyo adabiyoti tarixida mustahkam urfga kirgan aqidalardan biri shuki, muallif nuqtai nazari qanchalik yashirin bo'lsa, san'at asarining estetik qimmati shunchalik yuqori deb qaraladi.

Rus tilshunosligida matnni lingvistik obyekt sifatida boshlab berganlardan biri I. R. Galperin matnda ifoda topgan informatsiyaning pragmatic maqsadiga ko'ra uch turli bo'lishini birinchi bo'lib asoslab bergan. Uning ko'rsatishicha, matnda quyidagi informatsiya turlarini farqlash maqsadga muvofiq: a) mazmuniy-faktual informatsiya («содержательно-фактуальная информация»), b) mazmuniy-konseptual informatsiya («содержательно-концептуальная информация»), c) mazmuniy-tagma'noli informatsiya («содержательно-подтекстовая информация»). Tadqiqotchi bu turlarning har birining aniq-ravshan tavsifini bergan.²¹

Uningcha, mazmuniy-faktual informatsiya atrofimizdagi haqiqiy yoki tasavvurdagi olamda bo'lgan, bo'layotgan, bo'ladigan faktlar, voqea-hodisalar, jarayonlar haqidagi axborotlarni o'z ichiga oladi. Mazmuniy-faktual informatsiya o'z tabiatiga ko'ra eksplitsit, ya'ni hamisha verbal ifodalangan bo'ladi. Mazmuniy-faktual informatsiya ifodasida til birliklari odatda o'zlarining to'g'ri, denotativ-logik, leksikografik ma'nolarida qo'llanadi. Bizning mavzuimizga ko'ra bu o'simlik ramzlarining asliy ma'nolaridir.

Mazmuniy-konseptual informatsiya esa, tadqiqotchining qanoaticha, kitobxonga mazmuniy-faktual informatsiya vositalari bilan tavsiflangan hodisalar o'rtasidagi munosabatlarning muallif nigohidagi talqinlari, bu munosabatlardagi sabab-oqibat aloqalari, ularning xalq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotidagi qimmati, individumlar o'rtasidagi ruhiy va estetik aloqadorlik

²¹ Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. С. 27-29

kabilarning muallif tomonidan tushunilishi haqida axborot beradi. Bunday informatsiya yaxlit asardan chiqariladi, u hamisha ham yetarli darajadagi aniqlik bilan ifodalanmaydi. Mazmuniy-konseptual informatsiya turli talqinlarga yo'l beradi, hatto ana shunday talqinlarni taqozo etadi. Mazmuniy-faktual va mazmuniy-konseptual informatsiyalar o'rtasidagi farqni mavjudlik (real va tasavvurdagi) xarakteridagi informatsiya tarzida tasavvur etish mumkin. Shuning uchun ham mazmuniy-konseptual informatsiya, asosan, badiiy matnlarga xos kategoriyadir.

Tadqiqotchining tavsificha, mazmuniy-tagma'noli informatsiya til birliklarining assotsiativ va konnotativ ma'nolarni yuzaga chiqarish qobilishati, shuningdek, supersintaktik birliklar (bizning holatimizda g'azal) ichida gaplarning mazmunlarni kengaytirish, "to'yintirish" qobiliyatiga ko'ra mazmuni-faktual informatsiyadan chiqarib olinadigan yashirin informatsiyadir. Ayni paytda tadqiqot muallifi mazmuniy tagma'noli informatsiyaning fakultativ xarakterda bo'lishini ham ta'kidlaydi.²²

Bizning mavzuimizga ko'ra o'simlik ramzlarining **mazmuniy-faktual informatsiya va mazmuniy-konseptual informatsiya**, ya'ni **denotativ va konnotativ ma'nolari** tavsifi bo'lib bu ishimizning ikkinchi bobida yoritiladi, **mazmuniy-tagma'noli informatsiya**, bizning ishimizda **tasavvufiy ma'nolari** esa uchinchi bobda ko'rib chiqishga harakat qilindi.

Fransuz adabiyotshunosi R. Bartning "agar so'zlarda faqat lug'atda qayd etilgan muayyan ma'nogina bo'lganda va ikkinchi til (badiiy til deyilmoqchi.) tilning bunday to'g'riligini buzmaganda va undan ozod qilmaganda edi, adabiyot ham bo'lmas edi"²³

Hozirgacha she'riyat tilidagi nutq birliklarining semantik strukturasini aniqlash va tabaqalashtirish metodi lug'atshunoslik ilmida aniq bir rejaga tushgan emas. Buning asosiy sabablaridan biri, nazarimizda, mana shu tilshunoslar va

²² Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.142-b

²³ Iqtibos shu manbadan: Ржевская Н.Ф. О семиотических исследованиях в современном французском литературоведении // Семиотика и художественное творчество. – М.: Наука, 1977. С. 79

adabiyotshunoslar orasidagi she'riyat tiliga nisbatan bir tomonlama yondoshuv bo'lsa kerak. Sharq lug'atshunosligining o'rta asrlarda tuzilgan lug'atlarida har bir lug'at birligining bir qancha ma'no birliklari keltiriladi va har bir ma'no birligiga u yoki bu shoirdan bir yoki bir nechta she'riy misol keltiriladi.²⁴

Bu metodning asosiy kamchiligidagi bir shoirning yoki bir davrning she'riy asarlarida uchraydigan barcha so'zlikni o'z ichiga olmaydi va odatda, keltirilgan misollar faqat o'sha baytning o'zigagina taalluqli bo'lib, boshqa baytdagi uchragan xuddi shu lug'at birligiga ma'no jihatdan to'g'ri kelmaydi.

Bu lug'atlar she'riy asar tiliga mo'ljallangan lug'atlar bo'lmasdan, umum til saviyasidagi lug'atlar bo'lib, faqat undagi misollar she'riy matndan olingan.

Ikkinchi toifadagi lug'atlar bu O'rta asrlarda va hozirgi davrda tuzilayotgan yakka shoirning lug'ati bo'lib, bu lug'atlarga misol sifatida quyidagi lug'atlarni keltirish mumkin.

1. بها الدين خرمشاهی. حافظنامه. شرح الفاظ اعلام مفاهیم کلیدی و ابیات دشوار حافظ. تهران. انتشارات علمی و فرهنگی و سروش
2. حسین علی هروسی. شرح غزلهای حافظ. تهران. تهران.
3. احمد علی رجایی بخارایی. فرهنگ اشعار حافظ چاپ ششم. چاپخانه بهمن

Bu xildagi lug'atlarda shoirning saylanma g'azallari to'la keltirilib, undagi muallif nazarida qiyin tuyulgan so'zlar, iboralar, tarixiy shaxslar, qur'ondan oyatlar, hadisdan ko'chirmalar va h.k.larga etimologik, ensiklopedik, tarixiy, adabiy sharhlar beriladi. Bu asardagi bir qator lug'aviy birliklarni qamrab olsa ham, lekin barcha so'z boyligi aks ettirmaydi. Natijada, lug'aviy birliklarning juda katta bir qismi e'tibordan chetda qoladi.²⁵ Demak, biz o'rganayotgan ramzlar-o'simlik ramzlari ham ma'lum bir baytdagi holatidan umumiy tavsif beriladi va boshqa g'azallardagi ma'no evrilishlari nazarga olinmagan.

²⁴ Баевский С.И. Ранняя персидская лексикография XI – XV вв. М. Наука. 1989. С.165

²⁵ Quronbekov A. Hofiz g'azaliyotida ma'nolar silsilasi. T.: Fan. 1994. 12-6.

Shu boisdan mazkur tadqiq ob'ekti sifatida Hofiz Sheroziy g'azallaridagi o'simlik ramzlari tanlandi. Hofiz g'azallarining ma'nolar silsilasi nafaqat hozirgi paytda, balki o'z zamondoshlari uchun shubhasiz bir ummon bo'lgan. Shuning uchun ham shoirning o'z zamonidayoq uning zamondoshlari شعر حافظ هفت پرده روی هم دارد (Hofiz she'ri yetti pardaga cho'lg'ongan) deb baho berishgan. Yetti asrdan beri Sharq va G'arbda zamonasining eng ilg'or tafakkur egalarining o'y xayolini tug'yonga keltirib turgan she'riyatning ta'sir kuchi nimada?

Biz ishimizda Italiyalik olim D. Menjini Koreal tomonidan tuzilgan Hofiz g'azallari bo'yicha jome' lug'at (konkordans) lug'ati foydalanilgan holda professor ustozimizning A.Quronbekov yaratgan Hofiz g'azaliyotining ma'nolar silsilasidan foydalandik.

Ahmadjon Quronbekov tomonidan asosli sabab²⁶ bilan ikkidan ortiq uchraydigan ot so'z turkumiga oid lug'at birliklarinig genetik ma'no belgisi tabaqalsh asosidagi alohida til sistemasi (ya'ni Hofiz tili)ni ramzlarni aniqlashda asos qilib olindi. Ya'ni 2 martadan ortiq ishlatilgan 2761 birlikdan ot so'z turkumiga oid 1760 ta lug'at birliklari. Bu lug'at birliklar 18ta lug'aviy – ma'no guruhi²⁷ga bo'lingan. Hosil bo'lgan 18 lug'aviy – ma'no guruhlarining lug'at birligi miqdori, ma'no qamrovi, umumlashtirish darajasi jihatidan bir xilda emas²⁸:

Lug'aviy – ma'no guruhleri ierarxiyasi.

2 dan 10 gacha l.b.	10 dan 100 gacha l.b.	1 00 dan ko'proq l.b.	Jami lug'at birligi	Lug'aviy ma'no guruhleri	#
175	61	6	242	انسان	1
200	39	3	242	فعاليات	2
130	51	0	182	روحيت	3

²⁶ Quronbekov A. ko'rsatilgan asar, 23-27-betlar.

²⁷ Quronbekov A. ko'rsatilgan asar, 51-b.

²⁸ Quronbekov A. ko'rsatilgan asar, 53-b

117	48	2	167	احساس	4
80	45	4	129	طبیعت	5
76	22	1	99	مکان	6
56	29	1	86	لوازمات	7
45	32	1	78	اعزای بدن	8
53	16	0	69	زبان	9
46	20	0	66	کالبد و جان	10
49	16	1	66	عالم	11
41	22	0	63	دانش	12
50	9	1	60	الهیات	13
33	22	3	58	زمان	14
31	13	1	45	غذا	15
26	7	0	33	حیوانات	16
23	8	0	31	ملکیات	17
13	11	0	24	لباس	18

Shu 18 ta lug’aviy ma’nolardan biri bu “tabiat” deb nomlanadi. Bu guruhga 129 ta lug’aviy birlik kirgan. Shuladan o’simlik dunyosiga oidi 129 tadan 29 tasidir.

Faqat o’simlik dunyosiga oid so’zlarni yuqoridagi jadval ko’rinishiga solsak, quyidagicha jadval hosil bo’ladi:

2 dan 10 gacha l.b.	10 dan 100 gacha l.b.	100 dan ko’proq l.b.	Jami lug’at birligi	Lug’aviy ma’no guruhlari
14	9	1	29	رستنی ها

“Tabiat” ma’no guruhidan o’simliklarga oidlaridan quyidagicha jadval hosil bo’ldi.

1.	گل gul	197
2.	سرو sarv	64
3.	نرگس nargis	44
4.	لاله lola	33
5.	غنچه g’uncha	24
6.	برگ barg	18
7.	سنبل sunbul	14
8.	بنفشه binafsha	11
9.	خوشه boshq	11
10.	سوسن liliya	11
11.	نسرین nasrin	11
12.	جو arpa (doni)	10
13.	درخت daraxt	10
14.	شاخ shox	10
15.	شمشاد shamshod daraxti	9
16.	رنا ra’no	8
17.	رز uzum toli	7
18.	طوبى tubo daraxti (jannatiy daraxt)	7
19.	اسپند isiriq	5
20.	تول tol	4
21.	صنوبر qayrag’och	4
22.	کاج archa	4
23.	نهل nihol	4
24.	ريحان rayhon	3
25.	سبزه ko’kat va o’simlik	3
26.	عود aloye daraxti(+ud cholg’u asbobi) ²⁹	2(+7)

²⁹Devonda o’simlik ma’nosida ud 2 marta qo’llanganini kuzatdik, cholg’u ma’nosidagi u’d ham bu yerga qo’shilib ketgan bo’lib, u ma’nodagi u’d “asbob-anjom” ma’no guruhida bo’lishi kerak edi.

27.	پوخل کاه poxol	2
28.	قصب qamish	2
29.	گیاه giyoh, novda	2

Gullar mavzu turkumi: بنفشه sunbul, لاله lola, نرگس nargis, گل gul, بinafsha, سوسن liliya, نسرين nasrin, رعنا ra'no, ريحان rayhon, اود aloy (o'simlik shakli), گیاه giyoh, novda, (اسپند) isiriq

Daraxtlar mavzu turkumi: سرو sarv, صنوبر qayrag'och, كاج archa, طوبى tubo daraxti, رز tol, بيد tol, درخت daraxt, شمشاد shamshod daraxti, اود aloy (daraxt shakli), uzum toli

Juz'iy o'simlik mavzu turkumi: برگ barg, غنچه g'uncha, پوخل kax, شاخ shox, جو arpa (don ma'nosida qo'llanilgan), خوشه boshq.

II bob

O'simlik ramzlarining denotativ va konnotativ ma'nolari

Hofiz ijodining mukammal o'rganilishi uning hayotiy yo'lini yana yaxshiroq o'rganilishiga, ayniqsa deyarli 6 asr davomida uning asarlariga berilgan turli baholarning qay darajada haqqoniy ekanligiga ko'maklashadi .

Ammo aniq faktlarga asoslanadigan Hofizning haqiqiy biografiyasi uning o'zi tomonidan qilingan qaydlar mavjud emas. Uning hayoti haqidagi biz biladigan barcha ma'lumotlar tazkiralari orqali yetib kelgan (bu tazkiralardagi ma'lumotlar ham ko'pincha biri biridan ko'chirib kelingan) - bu bir qancha naqlar ham, og'izdan og'izga o'tib kelgan ko'rinadi

Oxirgi yillarda qilinayotgan tadqiqotlar, Hofiz devonining tanqidiy matni shoir biografiyasiga oid ba'zi aniqliklar kiritilishiga sabab bo'ldi, shuningdek u haqidagi ba'zi naqlarning haqqoniyligini tasdiqladi. Bu naqlar ba'zilar fantastik va deyarli hamisha faktografik noaniq, biroq xalqning sevimli shoiri haqidagi ovozi kabi yangraydi va berilgan bir necha avlod vakillari davomida yig'ilib kelayotgan fikrlari, xulosalaridan xabar beradi, shuningdek Hofiz ijodini tushunishga muhim manba bo'lmish, uning ijodiga berilgan baholar fondini yanada boyitadi.

Uning biografiyasiga oid ma'lumotlarni Shibliy No'moniyning Fors she'riyatiga bag'ishlangan kitobidan topsa bo'ladi. Shibliy No'moniyning qayd qilishicha, uning o'zi ham boshqa tadqiqotchi Abdulnabi Faxr uz-Zavana Qazviniyning 1028- h. yilda (1618-1619) bitilgan "Mayxona" tazkirasidagi ma'lumotlardan foydalanganlar.

Shoirning buvasi Isfahonlik bo'lgan. Forsning Otabeklar Salgariylar boshqaruvi paytida Sherozga ko'chib borgan va o'sha yerda vafot etgan. Shoirning otasi Bahaidin (boshqa ma'lumotlarga qaraganda – Kamoliddin).³⁰

Xoja Shamsuddin Muhammad Hofizi Sheroziyning tug'ilgan yili aniq emas, uning vafoti ham "Osori ajam" muallifi tomonidan 791-yil hijriy va boshqa manbalarda 792/3/4 hijriy deb ham ko'rsatiladi. Uning qancha umr ko'rgani haqida

³⁰ Брагинский И.С. Очерк о Хафизе, его эпохе и творчестве. – из истории персидской и таджикской литературы. Сталинабад. 1956.

ham turlicha ma'lumotlar mavjud, ba'zi rivoyatlarda 46 va "Tazkirayi mayxona"da 65 yil deb taxmin qilishadi. Shuning uchun Hofizning tug'ilgan yili 1325-1327 milodiy yillari deb taxmin qilinadi.

12-oktabr (20-mehr) kuni Eronda "hofizni ulug'lash kuni" deb e'lon qilingan va har yili shu sanada Sherozda va Eronning boshqa shaharlarida va jahonning hofizshunoslik maskanlarida turli ilmiy anjumanlar va Hofizxonlik kunlari o'tkaziladi.³¹

XIII va XIV asrlarda g'azal shu darajada shakliy kamolot va tematik o'zgaruvchanlikka erishdiki, klassik davrdagi o'ziga xos rivojlanish cho'qqisiga yetdi. Aynan mana shu "avj" holati, g'azalga xos barcha qonuniyatlar xarakteristikasini o'ziga xos "qaynash nuqtasiga" olib chiqilishini Hofiz lirikasining ko'pgina xususiyatlari tushuntirib bera oladi. Shu nuqtai nazardan Hofizning o'z zamondoshlari va o'tmishdoshlari Hofiz uchun darhaqiqat "pleyada"dirlar, ammo shu bilan birga ular – butun davrlar uchun g'azal ustasi bo'lgan shoir uchun poydevordirlar.

Darhaqiqat, Hofiz g'azallarining shunday guruhi mavjudki, ularni bir qancha avlod eroniy adabiyotshunoslar va she'riyat bilimdonlari tomonidan na undan oldingi na keyingi forsiy g'azal taraqqiyotida tengi yo'q shoh asarlar deb tan olingan.³²

Hofiz g'azallari, avvalo, jozibali va yoqimli ohangi bilan har qanday o'quvchini o'ziga tortadi. Keyin hassos va isyonkor ruhi bilan uning qalbini to'ldirantiradi. Rang –barang timsol-u tashbehlari, yuksak baiiyati bilan maftun qiladi. Nihoyat, keng va chuqur ma'nolari bilan aqlni band etadi. Qavat-qavat ramzu timsollar pardasiga o'ralgani bilan izlanish va tafakkur qilishga chorlaydi.

Shoir o'zning "professional"lik masalarga – faxriyaga o'zidan oldin o'tgan shoirlarga qaraganda ancha ko'p murojaat qiladi. O'zining daholigini anglash Hofiz lirikasida "tanlanganlik" motivida namoyon bo'ladi, chunki unig uchun san'at "payg'ambarlik"ning bir ko'rinishi xolos. U o'zining badiiy mahoratini

³¹ Quronbekov A. Hofiz asrorining yetti pardasi. Toshkent.2006. 11-b.

³² Рейснер М.Л. Эволюция классической газели на фарси (X-XIV века).М.: Наука. 1989.с.178

xudo tomonidan berilgan, erishib bo'lmaydigan, deb hisoblaydi, o'zining poetik "ko'z ochilishi"ni esa – taqdir tayyorlab qo'ygan deb hisoblaydi:

۱۰ شعر حافظ در زمان آدم اندر باغ خلد
دفتر نسرين و گل را زينت اوراق بود (206)^{33 34}

Hofiz she'rlari Odam davrida jannat bog'larida

Na'matak va atirgul barglaridan bo'lgan daftarlarning bezagi edi.

Umuman olganda Hofiz g'azallarining falsafiy asosi yetarlicha murakkab va bir xilda emas, uning kelib chiqishi haqidagi va uning komponentlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlari bu ish doirasidan tashqariga chiqib ketadi. Faqat shuni qayd qilamizki, biz uning she'riyatida haqiqiy so'fiyonadan tashqari ko'p jihatdan Umar Xayyom dunyoqarashiga borib taqaladigan boshqa turdagi faylasufona tuzilmalarni kuzatamiz. Bu eng avvalo tabiatdagi narsalarning o'zaro aylanib turishi haqidagi tasavvur.

۶ ز حسرت لب شیرین هنوز می بینم
که لاله می دمد از خون دیده فرهاد (101)

Men ko'raman, hasratdan Shirin labida

Hali ham Farhod qon ko'z yoshlaridan lolalar o'smoqda.

Umar Xayyom va Nosir Husravning badiiy asarlariga xos Faylasufona shubhani meros olgan holda, Hofiz jahon tuzulishidagi adolat borasida Xudo bilan bahs motiviga murojaat qiladi. Bir g'azalida shoir Xudodan bu dunyoyi bevafo baxtga erishish uchun inson huquqlari haqida so'raydi.

۱ گرمن از باغ تو يك میوه بچینم چه شود
پیش پایی به چراغ تو ببینم چه شود
۲ یا رب اندر کنف سایه آن سرو بلند
گر من سوخته يك دم بنشینم چه شود (228)

³³ Bu yerda g'azal soni beriladi, bayt soni esa bayt boshida bevosita berilib ketiladi.

³⁴ G'azallardan barcha iqtiboslar. تهران. تهران. محمد قزوینی و دکتر قاسم غنی. asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot asosida ko'rsatib boriladi.

Professor Sh.Shomammedov Hofiz mahorati haqida : “Xayyom to’rt misrada ifoda etgan chuqur falsafiy fiklarni Hofiz ikki misradan iborat birgina baytda go’zalva ixcham qilib, kitobxon diliga qo’yib qo’yishga qodir”³⁵

Agar men sening bog’ingdan bitta meva olsam nima bo’ladi

Sening chirog’ing bilan bo’yra ko’rsam nima bo’ladi

Yo rab, o’sha baland sarvning soyasida

Men yongan (solik-yo’lchi), bir dam o’tirsam nima bo’ladi.

Oldingi mutafakkir-shoirlar kabi, Hofiz insonning tashqi dunyo bilan garmoniyaga kirishishi, borliq qonunlarida kamolot izlashini, ammo topolmasligini tasvirlaydi.

۱ بیا تا گل برافشانیم و می در ساغر اندازیم
فلک را سقف بشکافیم و طرحی نو در اندازیم (374)

Hofiz mavjud dunyo tuzulishida nomukammalik motivlarini nafaqat aniq faylasufona ma’noda ifodalab qolmasdan bu abadiy muammoni notinch davr an’anaviy noroziliklariga umumiy mazmunni yuklab o’z davri tarixiy kontekstiga olib o’tadi.

Uning g’azallari orqali ko’p narsani o’rgansak bo’ladi.

Ramziylik va ma’no – madaniyat, ma’lum darajada, simvollar dunyosidir. Biz madaniyat dunyosida yashar ekanmiz, demak, simvollar dunyosida yashaymiz. Simvollar asosidagi madaniyat dunyo qanday bo’lsa shundayligicha ifoda etmaydi, balki uning belgilar, munosabatlarini ifodalaydi. Boshqa predmet, hodisa to’g’risida axborot beradi. Inson faoliyati doim simvol bilan ish qiladi. Madaniyatning simvolik konsepsiyasi dunyoning yangi ma’nosi va mazmunini ochib beradi.

³⁵ Шомухаммедов Ш. Хофиз Шерозий. – Т.: Фан. 1965. 51-б.

Madaniyat inson o'z ma'naviyati, ruhiyati, aql – idroki va qo'li bilan yaratgan sun'iy ramziylikdir³⁶.

Dunyoni bir butun tasavvur qilishning falsafiy, ilmiy va diniy jihatlar bor. Agar dunyoni yaxlit tasavvur qilmoqchi bo'lsak ularni o'zaro birlikda qarash kerak. Ularni farqlash asosida emas, balki birlashtirish, sintez qilish asosida o'rganish dunyoni yaxlit tushunishni hosil qiladi.

Falsafa, din va fanning o'zaro hamkorligini ta'minlash uchun har bir inson ma'naviy hayotining asoslari, tomonlari, madaniyatining shakllari ekanligini tan olish kerak. Ularning qaysi biri ahamiyatli degan savol qo'ymay, har birining o'z o'рни va vazifasi bor ekanligini, ular birisiz ikkinchisi yashashi mumkin emasligini ko'rsatish kerak³⁷.

Hofiz ba'zi g'azallarini oddiy inson ongi hech qanday tag mazmunsiz qabul qiladi. Ramz she'rga tushgandan keyin, o'z hayoti bilan yashay boshlaydi va turli ramziy ma'nolar kasb qiladi. Agar ta'bir joiz bo'lsa, oilada o'g'il farzand tug'ilsa, u hech qachon otaning hayotini takrorlamaydi, u butunlay boshqacha hayotni boshidan kechiradi. She'rdagi so'zlar ham xuddi shunday o'z mustaqil hayot yo'liga qadam qo'yadi.

Masalan, tasavvuf ahli nazdida “may”ning ma'nosi – ilohiy ilhomlarning solik qalbiga tajallisidir. Demak, ahli tasavvuf bu ruboidagi, keyinchalik g'azaldagi “sharob”ni faqat Alloh inoyat qilgan ilhom mavjlari deb qabul qiladi va butun ruboiyning mazmunini ana shu nuqtai nazardan talqin qiladi.

Ilm ahli bu ruboiyni o'z dunyoqarashidan kelib chiqib talqin qiladi va bu ruboiydagi “sharob”ning ramziy ma'nosi “ilmiy haqiqatlarni anglashdan paydo bo'ladigan zavq” deb tushunadi. Natijada bu ruboiyni “olim kishi o'lganidan keyin ham u kashf qilgan kashfiyotlar kelajak ilm ahliga zavq bag'ishlaydi” deb talqin qiladi.

Adab ahli bundan ham boshqacharoq tushunadi. Shoirlar buni o'z ishq manbaiga cheksiz ehtiros deb tushunadi. Shoir bu ruboiydagi “sharob”ning ma'nosini “bor vujudi bilan kuyib-yonib sevish” deb talqin qiladi.

³⁶ Rahimov I. O'tamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari.(Fan falsafasi) Toshkent 2002.134-b.

³⁷ Rahimov I. O'sha asar. Toshkent 2002. 29-b.

Lekin oddiy kitobxon ham bu she'ni o'zi bilganicha tushunib, zabq olaveradi.³⁸

Hofiz devonida badiiy ilhom motivlari har xil tematikalar atrofida oson o'z qiyofasini o'zgartiradi, goho o'quvchi yoki eshituvchini ko'ngil bilimlari nurlaridan ogoh etadi, goho panegirik jilvalar bilan hayratda qoldiradi. Shoir, aslida, she'riyat haqidagi kabi san'at, ma'lum darajada ko'nikmalarga va texnik usullariga ega mahorat haqidagi tasavvurlar va unga g'ayritabiiy kuchlarga ega bir shoir sifatidagi qarashlarni ajratmaydi.

Aksincha, she'riyat tabiiyatiga oid bu ikki qarash Hofiz ijodida ajralmagan, sintezlashgan ko'rinishda tez-tez uchrab turadi.³⁹

Xojegon silsilasidan bo'lgan bir tabarruk zot hatto agar kishi so'fiy bo'lsa, Hofiz devonidan yaxshirog'ini topa olmaydi, degan ekan.

Alisher Navoiy ham "Mahbub ul-qulub" asarida shoirlarni uch guruhga: ilohiy ishqni kuylovchi, majoziy ishqni kuylovchi, ilohiy va majoziy ishqni qo'shib kuylagan shoirlarga ajratar ekan, Hofizni keyingi toifaga mansub deb bilishi bejiz emas.⁴⁰

Adabiyotshunoslikning maxsus adabiyotida simvol-ramz turli ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan, L. I. Timofeyev allegoriya(majoz)ni ramzning favqulodda shakli sifatida ko'radi: "Agar allegoriya-majoz o'z mustahkamligini yo'qotsa uni o'zgartirib simvol-ramz deyiladi, ya'ni uning boshqa bir turidir. Ammo, amaliyotda uning yaqqol farqini aniqlash mushkul".⁴¹ Timofeyev ta'rifiga ko'ra allegoriya-majoz metafora asosiga qurilgan butun bir asar, bir ko'rinishni ikkinchi bir ko'rinishga o'tishidir.

A. Kvyatkovskiy "поэтический словарь"ida yozadi: "simvoldan farali ravishda majoziy obraz istioraning sodda bir vositasi xolos; majoz ma'lum bir aniq

³⁸ Quronbekov A. Ruboiylar jozibasi. Sino. 2006 kuz. 23-son. 19-b.

³⁹ Рейснер М.Л. Эволюция классической газели на фарси (X-XIV века). М.: Наука. 1989.с.188

⁴⁰ Alisher Navoiy asarlar to'plami. 14-jild.-T.: 1998.25-b

⁴¹ Тимофеев Л. И. , Основы теории литературы, М., 1968. С. 220-221.

tushuncha yoki faktga nisbatan tatbiq qilish mumkin. U ifodalayotgan tushuncha bilan uning aloqasi shartli va birma'nolidir. Lekin shunday holatlar mavjudki, allegoriya va ramz orasiga aniq chegara o'tqazish juda qiyin bo'lib qoladi.⁴²

Shuni ham ununtmaslik kerakki, boshqa tildan o'zlashgan har qanday obraz, uning lug'aviy ma'nosiga qaramasdan poetik sistemada, yangi semantik va assotsiativ aloqalarda ishga tushadi, xullas, ibtidoiy muhitidagi o'zligini yo'qotadi. Masalan, ورد ("atirgul") arabiy poeziyada asosiy obraz sifatida forsiy ورد ("atirgul")ga ekvivalent emas. Chunki forsiy she'riyatda bu badiiy tarkibni ifodalovchi asosiy vosita گل ("atirgul") hisoblanadi. Boshqa tomondan, forsiy so'z گل badiiy matnlarda nafaqat atirgul ma'nosida, balki ma'shuqa yuzini ham anglatadi.

O'simlik ramzlarinning denotativ va kanotativ ma'nolarini o'rganar ekanmiz ularning lug'atlarda keltirilgan ma'nolarini o'rganib chiqamiz.

Biz avvalo 10 dan kam uchraydigan o'simliklarga oid lug'aviy birliklarning lug'atlar va manbalarda berilgan ma'nolaridan o'rganishni boshlaymiz. 10 dan kam uchraydiganlar asosan, o'z ma'nosida qo'llanilgan, yoki keyinroq ta'rifi beriladigan boshqa so'zlarga sinonim sifatida tadqiq qilinadi. Shuning bu so'zlarning faqat lug'aviy ma'nolarini lug'at asosida berib ketamiz.

1	شمشاد shamshod daraxti
2	رنا ra'no
3	رز uzum toli
4	طوبى tubo daraxti (jannatiy daraxt)
5	(اسپند) isiriq
6	تول tol
7	قنوبر qayrag'och
8	كاج archa
9	نهل nihol

⁴² Квятовский А., Поэтический словарь, М., 1966.с.263

10	ريحان rayhon
11	سبزه ko'kat va o'simlik
12	عود aloy daraxti(+ud cholg'u asbobi) ⁴³
13	پوخل poxol
14	قصب qamish
15	گياه giyoh, novda

Lug'atda lug'aviy birlikning konnotativ ma'nosi sifatida keltirilgan ba'zi ma'nolar keyinchalik paydo bo'lgan bo'lishi mumkin, yoki bunday so'zning g'azal kontekstida kelgan ma'nolari iste'moldan chiqib ketgan bo'lish ehtimoli yoki bu ma'no juda ham individual ma'no kasb qilgan bo'lishi ham mavjud. Shuning uchun lug'atda kelgan ma'nolarning g'azallarda uchramasligi bu g'azal lug'aviy birligi semantik ma'nolarga kambag'alligidan, yoki aksincha shu birlikka oid ko'pgina ma'no qirralarining lug'atda aks etmasligi lug'atning yaroqsizligidan dalolat qilmaydi.

* چوب ___ [shemshod va shamshod] bot. shamshod (Buxsus); شمشاد
shamshod yog'ochi⁴⁴

رنازيبا [ra'nozibo] Xitoy atirguli (Hibiscus rosa-sinensis).

رز [raz] 1) uzum toli; 2) *ism*. Raz

رز = دختر رز

ابنة العنقود و ابنة الكرم (= بنت الكرم) و بنت العنب عربى : uzum qizi o'sha : دختر رز
dir, ya'ni uzum qizi yoki tok qizi, sharobga kinoyadir. رز آب uzum suvi va خون رز
uzum qoni (Hofizdan: شامست نه از خون رزانست boda uzumlar qonidandir,

⁴³Devonda o'simlik ma'nosida ud 2 marta qo'llanganini kuzatdik, cholg'u ma'nosidagi u'd ham bu yerga qo'shilib ketgan bo'lib, u ma'nodagi u'd "asbob-anjom" ma'no guruhida bo'lishi kerak edi.

⁴⁴ Bundan keyingi shu shakldagi so'z ma'nolari shu lug'atdan olinadi. Персидско-русской словарь. 2 том. Под ред. Ю.А. Рубинчика. Советская энциклопедия. Москва – 1970.

sizning qongizdan emas) va “uzum qizi qoni” (Hofiz: به خون دختر رز uzum qizi qoniga xirqani yuvdi) ham o’sha ma’noda.

uzumlar suvi: uzum sharobiga kinoyadir. Uzum (رز) daraxti, uzum (انگور) bog’i.

Uzum(lar) qoniga uzum qizi qoni ham deyishadi⁴⁵.

طوبى [tubo] 1) (*درخت __) afs. *Jannatiy daraxtning nomi*; 2) *kitob*. Baxt, rohat; 3) *ism*. Tubo.

Shodiravon G’ani yozadi: “طوبى ni tubo deb o’qish lozim, chunki alif 4-martabada durgani uchun har doim o deb o’qish kerak va qofiya ham o bilan qofiyalanishi kerak” (حواشی غنى، ص 86)

Tubo: mo’jizaviy daraxt bo’lib shoxlari shoxlariga chirmashib ketgan katta soya beradi, jannatdagi bu daraxtga Quronda unga shunday yashirin ishora qilinadi. (iymon keltirganlar va yaxshilik qilganlar, “tubo” ular uchundir va yaxshilik qilsinlar [ra’d. 29-o.]). Mufasssirlarning ko’pchiligi jumladan Zamaxshariy va Qozi Beyzoviy bu so’zga faqat xursandchilik, xurramlik va shu kabi ma’no berishadi. Ba’zi boshqa mufasssirlar, jumladan مجمع البيان ning muallifa va Meybo’di va Abdulfath Rozilar ham shu ma’noda qabul qilishgan, ham yana boshqa hadis naql qilganlar. Endi ozmi ko’pmi arabcha Meybo’diy hadisiga to’g’ri keladigan Abdulfath hadisida shunda deyiladi:

“Abu Sa’id Xadariy aytdiki, Rasul (s.a.v.)dan bir kishi so’radiki “tubo” nima? Rasul (s.a.v.) buyurdilarim, Beheshtdagi daraxtning nomidir. Shunday kattaki, yuz yillik yo’ldir. Behesht ahli kiyimlari uning gullaridan unadi. Muoviya bin Qararay otasidan rivoyat qiladiki, Rasul (s.a.v.) dedi: Tubo Beheshtdagi daraxt bo’lib Xudoyi Taolo uni o’z qudrat qo’li bilan ekkan va o’z muqaddas ruhidan puflagan. Uning mevalari Behesht ahlining zeb-ziynatlari va nozik liboslardir.

خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظه مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385. ص. 342.

Uning shoxlarini Behesht hududidan tashqaridan ko'rinib turadi... Mug'ayyis bin Sami shunday degan... Beheshtda hech bir joy yo'qki u daraxt shoxalaridan bormagan bo'lsa va agar ular u daraxt mevasidan orzu qilishsa, shox chiqib kelib meva beradi [va ular terib oladilar]... Abid bin Amir deydi, asli Rasul (s.a.v.) saroyida bo'lgan daraxtdir va Beheshtda hech bir saroy, xona, ko'shk yo'qki u daraxt shoxidan u yerda bo'lmasa... va aslidan [tomiridan] ikki chashma chiqadi biri Kofur va biri Salsabildir... Maqotil deydi: har bargi bir xalqqa soya soladi.

Hofiz she'riyatida yo yor qadd-u qomatiga mushabbehun beh sifatida va yo ma'shuqaning baland bo'yi va qadd-u qomati raqibi sifatida muhokama qilinadi yoki mustaqil ravishda, o'sha sersoya Behesht daraxti sifatida qo'llaniladi^{46, 47}:



(180)

Tubo qomatingdandan dam chiqaza olmaydi

Buni qissani qo'yaqolay, gapim oshib ketmasin.

اسفند، اسپند، [esfand] II.bot. isiriq (Harmala ruta) (*shuningdek Eronda bolalarga "ko'z tegmasin" uchun tutatishadi*)

سفيد * oq * oq tol, siniq tol (salix fragilis); خشتی * tol (Salix); بيد [bid] 1) tol (salix alba); مجنون * majnuntol (salix babylonica); / لرزیدن * terak * terak bargidek titramoq (*toldek titramoq*);

صنوبر [sano'ubar] 1) qarag'ay; qoraqarag'ay; oqqarag'ay. 2) *ism*. Senoubar.

صنوبرقد [senoubarqad(d)] *she'r*. qayrag'och kabi qomati kelishgan.

⁴⁶ "تفسير ابو الفتوح رازی، ج 6، ص 487

⁴⁷ خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385. ص.320.

صنوبرى [senoubari] *anat.* 1) shilimliqqa oid, shiliq bilan oʻralgan. 2) qubbasimon, guddasimon; 3) *qar.* صنوبريشكل [senoubarishakl] konus shaklidagi, konussimon.

صنوبر خرام “konussimonlar oilasiga mansub qarag’ay daraxtidir. Qalin va kichkina barqlarga ega, bo’yi uzun va nozik. (الغنتامه) . “sarv va qayrag’och ikkalasi ham sarvning ikki guruhidandir” (حواشی غنى. ص48) sanobar ham sarv kabi qadd tashbihiga nisbatan qo’llaniladi.

۵ دل صنوبریم همچو بید لرزان است
ز حسرت قد و بالای چون صنوبر دوست

(“dele saboubarim” ya’ni konussimon dilim – qalb, ma’naviy ma’nodagi qalb emas) “sanoubare xe(a/o’)rom” murakkab sifat, uning xirom aylashi, chapga o’ng tashlab yurishi, sanubarnikiga o’xshaydi.

каж [koj] 1) (*shun.* __ درخت*) 1) qarag'ay (pinus); tilog'och (ignabarglarga mansub daraxt) (Larix); *bot.* oqqarag'ay paxta (Abies); 2) qoraqarag'ay (picea), archa; 3) *kam.* Ignabargli daraxt.

نهال [nehol] 1) nihol; ko'chat; novda, shoxcha, bakchi; کاشتن __ *ko'chat
ekmoq, nihol o'tkazmoq

ريحان [reyhon] *ko'p.* ريّاحين [rayohin] 1) *bot.* rayhon (Ocimum); 2) xushbo'y o'simlik; 3) *ism.* Rayhon

ريحانی [reyhoni] (shun. __ خط *) rayhoniy (*xat nomi, asosan mavzularni, izohlar yozishda ishlatiladi*)

خوشه [xushe] 1) Bosh, popuk; انگور ___* bir bosh uzum; 2) to'pgul; 3) boshog'i; چاودار ___* javdar (qora bug'doy) boshog'i; 4) ayol.izm Xushe; بستن ___ boshqlamoq, boshog'i chiqarmoq (tortmoq); چیدن (برچیدن) a) (terimdan keyin) uzumlarni saylamoq; 6) (o'rimdan keyingi) boshqlarni saylash; فلک (چرخ) ___* astr. Zuhra (yulduzlar burji)

عود [ud] I bot. aloy daraxti kalambak (Aloexyluma gallochum)

كاه [koh] poxol; somon; chori, to'pon;

قصب [qasab] II qad. Qamish

خو [xu] II kam. 1) begona o't; 2)pechak (Convolvulus), (Hedera);

10 dan ko'p 100dan kam ishlatiladigan ramzlar guruhi:

سرو sarv	64
نرگس nargis	44
لاله lola	33
غنچه g'uncha	24
برگ barg	18
سنبل sunbul	14
بنفشه binafsha	11
خوشه boshq	11
سوسن liliya	11
نسرین nasrin	11
جو arpa (doni)	10
درخت daraxt	10
شاخ shox	10

سرو [sarv] 1. (shuning. آزاد ___*) sarv, kiparis; ___ archa, qora archa; ___livan kedri; ___ tuyay, tuyadarxt (sarvguldoshlar oilasiga mansub archasimon o'simliklar turkumi) tirik daraxt (Thuja); 2. Sarvqad (qomat haqida); ___* سهی she'r. Go'zal, sarv kabi sarvqomat. ___* سیمین بر oq tanli go'zal; ___* خرامان she'r. xushqad, chiroyli

Sarv-sarv (#176⁴⁸)


Sarv bo'yi 20 mgacha yetadigan, konus shaklida o'sadigan hamisha yashil, igna bargli, bujur mevali daraxtdir (FA, 16).

⁴⁸ Kitobda berilgan tartib raqami.

Sharq manbalarida u *sarv*, 'ar'ar deb berilgan

Sarvning qadimgi yunoncha nomi *kiparissos* bo'lib, shuning asosida unga botanikada *Cupressus sempervireas* L. va rus tilida "кипарис" nomi berilgan. (Dioskorid, I, #78; Tabariy, 234; Abu Mansur, #320; Qonun, II, #481; Saydana, #531)⁴⁹.

Hofiznoma: سرو روان: sarvi ravon sarvga o'xshagan qomatli ma'shuqqa o'xshatishdir. Ularning o'rtasidagi farq "Sarv"ning oyog'i tuproqda bo'lsa ma'shuq ravon (yuruvchi) va xiromon (sollanuvchi)dir. Boshqa joylarda aytadi:



(322)

Agarchi seni talab qilib shamol bilan sherik bo'ldim

Qomating sarvi xiromoni beliga yetmadim

(bu yerda sarvi xiromonning misol qilib berilishi uning tuzilmasi ham sarvi ravonga o'xshashligini ko'rsatish edi). "گنج روان" xiromon ma'shuqaga istioradir va tuzilmasi ham sarvi ravon kabidir.⁵⁰



(11)

Bayt ma'nosi: Sarvqad xushro'y jilvafurushligi va noz-karashmalari bizning sanubarxirom yorimiz jilvagarlik qilishni boshlagunicha. Uning jilvagarligidan keyin boshqa jilvagarliklar to'xtab qoladi.⁵¹

* Nargis (narkas) (Narcissus Orientalis) (گل __ * .مخ) 1) [narges] نرگس
* nargis piyozi; 2) (مخ) __ پیاز * sariq nargis; __ زرد seryaproq nargis; __ پرپر

⁴⁹ Bu shakldagi lug'aviy ma'nolar quyidagi kitobdan olindi: Karimova S.U. IX-XI asr kimyo va dorishunoslik fanlari taraqqiyotida markaziy Osiyo olimlarining o'rni. Toshkent.2002.FTDK LITAF.

⁵⁰ 1385. خرماهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 381 ص.

⁵¹ 1385. خرماهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 161 ص.

___* نيم خواب و ___* مست, ___* جادو she 'r. Go'zal ko'zlari; oshiq ko'zlari; 3) ayol.ism. Nargis.

نرگسی [nargesi] 1. Nargisiy (ismaloq yoki boshqa ko'katlardan bo'lgan, o'rtasi tuxum sarig'i bilan bezatilgan ovqat); 2. 1) bot. nargisga oid; 2) nargis shaklini eslatuvchi, nargisga o'xshash.

“Hofiznomada”: Narges (arablashgan shakli "نرجس" "عبر"). Gullari yakka-yakka, gulbarglari soni uchta bo'lib oq ranglidirlar, kosabarglari ham xuddi shunday. نرگس مخمور mast nargis, نرگس شهلا shahlo nargis, نرگس بیمار bemor nargis, ya'ni نرگس خمار mast nargis, نرگس زرد sariq nargis, ya'ni نسرین nasrin.⁵²

Gulining o'rtasida sariq halqa ko'rinadi – uni نرگس شهلا shahlo nargis deyiladi. Ba'zi bir turlarining gulining o'zi sariq yoki oq; lekin ularning o'rtasidagi gulbarglar oq, ularni نرگس مسکن miskin nargis deyishadi. گل گلاب (برهان قاطع. ص.256)

Narges Hofiz devonida bir necha bor o'xshatilayotgan narsa sifatida yoki ma'shuq ko'zlari raqibi sifatida mazmun yaratish vositasi bo'lib juda ko'p qo'llanilgan.

Aslida fors she'riyati an'analarida “narges” ko'zi bor-u ammo ko'rmaydigan sifatida tasvirlanadi....⁵³

۲ به يك كرشمه كه نرگس به خودفروشی كرد
فريب چشم تو صد فتنه در جهان انداخت

(16)

Nargis bir karashma ila o'zini sotdi

Sening ko'zlaring jodusi jahonda yuz fitna qo'zg'adi

⁵² انتشارات معین. www.hadisystem.ir. فرهنگ معین.

⁵³ خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385. ص.170

___ نعمان; لاله عباسی q. ___ عباسی 1) Lola (Tulipa gesneriana); [lole] لاله anemon (ayiqtovonlilar oilasiga mansub o'tlar); 2) shamdon (billur yoki shisha qalpog'li); 3) ayol.ism. گوش ___ quloq solinchagi.

[loleo'zor] لاله عذار 1. Qar. [loleró'xsor] لاله رخسار و [loleró'x] لاله رخ 2. ayol.ism. Lolero'x.

[loleabbosi] لاله عباسی Bot. Mirabilis, tungi gul (Mirabilis).

[loleo'zor] she'r. 1. Qirmizi (kim haqida-r) 2. Go'zal She'r. 1.

[lolegun] لاله گون qar. [lolefom] لاله فام

[lolegun] 1. Lolarang; ochiq-qizil, alvon; 2. Ayol.ism. Lolegun.

[loleo'zor] لاله عذار qar. [lolevash] لاله وش

[lolo] II qar. [lole] لاله.

Hofiznomada: (لاله ازلال) qizil ma'nosida (uning arabiylashgani لعل dir)= (شقایق)

“Lolaguldoshlar oilasidan bo'lib... lola guli uchta gulbargdan va uchta rangli gulbarg shaklidagi gulkosalardan tashkil topgan... 50ga yaqin turi uchraydi... Kazimirskiy tadqiqotlariga ko'ra kosabarglari qon rangida va o'rtasi qora bo'lgan gullarga “lola” va “shaqoiq” deb nomlanadi... Qazvinii عجایب المخلقات da kelishicha, شقایق النعمان biri Qadahni esga olish va piyola olish (hurmat ma'nosi ham mavjud)

Hira podshohi bo'lib No'mon bin Manzar shu gulga fors tilida lola deydi⁵⁴


“Lolaning bir turi, dog'li lola bo'lib va yana boshqa nomi dilsuxta deyiladi” (پیشین، نیز بر هان.) shaqoiq ko'knorilar oilasiga mansub bo'lib uning gullari to'q qizil rangdadir.

⁵⁴ انتشارات معین. www.hadisystem.ir. فرهنگ معین.

غنچه [g'o'nche] 1) Kurtak, g'uncha, shone; 2) *she'r. ma'shuqa og'zi*; 3) *ayol.ismi. G'o'nche*; بستن (زدن) ___ * q. کردن ___ a); کردن ___ a) kurtak yozmoq, g'uncha qilmoq; درخت کردن ___ Daraxt kurtak yoydi; 6) tishlamoq (*labini*), qismoq (*og'zini*); خسپیدن (نشستن) ___ kam. (*kim haq-r.*) g'uj (g'ujanak) bo'lib uxlamok.

Hofiznoma: Hofiz ham o'zidan oldin o'tganlar kabi nasim shamoli, ayniqsa ertalabki nasim shamoli g'unchalarning ochilishiga sabab bo'lishiga ishonadi. Bu yerda yozadi: undan va uning hididan, berkingan va o'z qobig'imga o'zim o'ralib o'tirgan mendek biriga nasim kabi madad keldi. Men esa, qizil gul kabi g'unchalikdan chiqib, ochilib o'z qonli dilimni oshkor ko'rsatar etgani kabi o'z qonli qalbimni oshkor qildim.

Hofiz g'uncha va nasim orasidagi bu kabi munosabatini ko'p marta qo'llagan, ba'zida esa badiiy san'at-u husni ta'lillarni ishga solgan⁵⁵.



(32)

Bizning va dil ishidan g'uncha yuz tugun yechdi

Gul nasimi dil kabi sening izingga tushdi.

برگ [barg] I 1) barg (O'simlik); گل ___ * barg; 2) varaq (qog'oz); bet; kartochka; اجرائیه ___ * huq. Ijro varag'i; سؤاليه ___ * anketa, savolnoma; 3) karta (o'yin); برنده ___ * kozir; دادن ___ * barglarga burkanmoq;

___ * asl lavr (*Laurus nobilis*); ساتر ___ * anjir bargi; oddiy (arzimas) sovg'a; کارزونی ___ * bot. Yovvoyi anis (arpabodiyon, anis (olma navi)) (*Laurus nobilis*); نو ___ * bot. Biryuchina (*Lengustrum*) زدن ___ * og'z. a) mug'ombirlik qilmoq (o'yinda); b) mug'ombirlik qilmoq (kim b-ndir)

خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 2. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385. ص. 944-943.

Hofiznomada: Barg – Hofiz she’riyatida uch xil ma’noda ishlatilgan:

۱ بلبلی برگ گلی خوش رنگ در منقار داشت
و اندر آن برگ و نوا خوش ناله های زار داشت

1) Hammaga ma’lum bo’lgan giyohning bir qismi, chunonchi برگ گلی misrasidagi kabi Bulbul tumshug’ida xushrang bir gul **bargi** bor edi

Va u navo va qudratining ichida zorning xush nolalar bor edi. (o’z ma’nosida)

2) Qudrat, struktura

3) Havas, mayl, orzu, rag’bat, ishtiyoq...

۵ درویش را نباشد برگ سرای سلطان
ماییم و کهنه دلای کاتش در آن توان زد

(154)

Darveshning sultondan **orzu**, **rag’bat**, **hasrati** yo’q va biz darveshmiz va barcha mol, dunyoviy narsalardan faqat ko’hna xirqamiz bor. U ham bo’lsa riyo xirqasi. Va yoqib yuborsa ham bo’ladi. ha xirqaning yonishi vojibdir (xirqaning chiqarilishi, yondirilishi, ko’z oqidan riyoni ketkizmoqdir).

سنبل [so’mbo’l] II 1) sunbul (Hyacinthus); 2) jingala, jingalak, (soch) gajagi * خطایی * valeriana (dorivor o’tsimon o’simlik) turi; جلی (کوهی) * oyboltirg’on, oqsasir (o’simon o’simlik) (Frchangelica Hoffm.); رومی * dorixona mauni, valeriana (Valeriana officinalis).

سنبل الطیب [so’mbo’lo’ttib] valeriana (Valeriana).

#Sunbul – sunbul

Sunbul cho’l yerlarda o’sadigan ko’p yillik o’t bo’lib, ildizi uzun, poyasi qattiq bo’ladi. Barglari ingichka va uzunchoq, mayda gullari boshogqa yig’ilgan. O’simlikning hidi yoqimli, mazasi achchiq bo’lib, tilni quritadi (FA, 633)

Sunbul manbalarda *sunbul* va *nard* yoki *nordin* deb berilgan. So’nggillari o’simlikning qadimgi yunonchi nomi “*nardos*”dan hosil bo’lgan. Sunbulni botanikada Valeriana Jatamansi sin, Nardostachus jatamansi C.D. yoki Ferula sumbul Hook. deb aniqlangan. (Dioskorid, I, #6; Tabariy, 248; Hoviy, #849; Abu Mansur, #315; Qonun, II, # 516; Saydana, #517)

Hofiznoma: Shodiravon G'ani yozadi: “ sunbul: muattar qora rangli va xushbo'y guldur. سنبل مطلق mutlaq sunbul, o'sha qora qismiga aytiladi. Sunbul uch qismdir: سنبل رومی rumiy sunbul, سنبل هندی hindiy sunbul, سنبل جبلی tog' sunbuli. Umuman olib qaraganda, hindiy sunbuldan murod qora, xushbo'y, sobol (Kamchatka suvsari) shleyfi (ayyollar kiyimining uzun qismi) kabi uzundur (تحفه (حكيم مؤمن). Shoirarning mushabbahun beh - o'xshatadigan narsasi o'sha qismdir, yani qora hinduviy sunbuldur. (حواشی غنی، ص 215) lolagullilar oilasiga mansub bir urug'pallalilar guruhidan. Bir rangli kosasi, binafsha boshqoq gullari bo'lib tez gullaganidan va guli chiroyli va xushrangliligi, xushbo'yligidan e'tiborga loyiqdir. Bezashda ko'p ishlatiladigan o'simliklardandir. Piyozi esa guldonlarga ekishadi. Uning eng yaxshi turi Gollanlarga oididir; زمبل، زومبل، ارسیل، عرصیل، عیسلان، خزام، = shu lug'atda davom etadi: sunbul turlari: ایرانی، جبلی، ختایی، ... او قنطوس، او قنطوس... larni sanaladi va har biriga ta'rif beriladi.⁵⁶

Sunbul forsiy she'riyatda ikki ma'noda ishlatiladi: biri hammaga ma'lum giyoh sifatida, yuqorida ta'riflandi. Jumladan, yor zulfga mushabbahun bih – o'xshatilayotgan narsa sifatida fors tilida ishlatila boshlangan:

1) Zulf sifatida:

۱ بیتی دارم که گرد گل ز سنبل سایه بان دارد
بهار عارضش خطی به خون ارغوان دارد (120)

Butim bor gul chekkasi, sunbuldan soyaboni bor
Orazi bahorida arg'uvon qonidan bir chiziqli bor.

2) O'simlik ma'nosida:

۷ نقاب گل کشید و زلف سنبل
گره بند قباى غنچه وا کرد (130)

Gul niqobini yechdi va sunbul zulfi

G'uncha qabosi bandi tugunini yechib yubordi.

⁵⁶ انتشارات معین. www.hadisystem.ir نرم افزار: فرهنگ معین.

--* گل * binafsha ildizi, (*ريشه) binafsha (Viola); [banafshe] 1) binafsha (Viola); بنفشه
kapalakgul, farangbinafsha (Viola tricolor); 2) *Ayol.ism* Binafsha.

ultrabinafsha *اشعه *ما فوق __ binafsha rangga bo'yamoq. بinafsharang, binafshaga oid; [banafsh] بنفش
nurlar; __ *ما فوق *ultrabinafshaviy; کردن

[banafshemu(y)] she 'r.Qora sochli بنفشه مو(ی)

#Banafsaj – binafsha

Binafsha ko'p yillik, bo'yi 2,5 – 1,5 sm keladigan o't bo'lib ildizpoyasi yerga yoyilib o'sadi. Barglari yumaloq tuxumsimon gullari mayda, noto'g'ri, siyoh rang va xushbo'ydir. (Sahobiddinov, #258).

Binafsha forsiy so'z bo'lib, arab tiliga banafsaj shaklida o'tgan. Qadimgi yunon tilida ion deb atalgan. Uning botanic nomi Viola odorata L. Dioskorid, IV, #100; Tabariy, 122; Abu Mansur, #83; Saydana, #183).

Hozirda binafshaning kimyoviy tarkibi o'rganilgan va quyidagi moddalar topilgan: triterpenoidlar, alkaloidlar, fenolkarbon kislotalar, flavonoidlar, efir moyi, organic kislotalar (PP₈₆ – 24).⁵⁷

Ko'knorilar oilasiga mansub 100 ga yaqin turi ma'lum bo'lib barchasi shimoliy yarim sharda o'sadi. Gullari tartibsiz, gullari odatda binafsahrang va ba'zan oq... 5 ta gulbargga ega, gulbarglaridan birining nomi muqaddam bo'lib uning shpora-tepkisi bo'ladi.⁵⁸

Ana shu “teпки” uchi bir oz qayrilgan bo'lib, ko'k rangli va xushbo'ydir, asosan, yor zulfiga o'xshatiladi. Shuningdek, Hofiz devonida ham bir tekis yor **zulfi** va ba'zan **uning raqibi** hisoblanadi – xuddi نرگس kabi ham yor **ko'zi**, ham ma'nosozlikda uning raqibi hisoblanadi.

⁵⁷Karimova S.U. IX-XI asr kimyo va dorishunoslik fanlari taraqqiyotida markaziy Osiyo olimlarining o'rni. Toshkent.2002.FTDK LITAF.68-b.

⁵⁸ انتشارات معین. www.hadisystem.ir. فرهنگ معین.

تاب بنفشه میدهد طره مشکسای تو

پرده غنچه می دهد خنده دلگشای تو

Mushkin soching binafsha hidin taratur

Sening dil yayratuvchi kulging g'unchaga parda beradi.

Bayt ma'nosi: binafsha xayol surib, o'zining jingalak zulf va kokilini o'rib o'tirardi, nogoh sabo yo'ldan chiqib sening sochingdan ta'rif qilib Uning ko'z-ko'zlariga xotima berdi⁵⁹.

Binafsha jingalak sochini o'rib o'tirardi, sabo shamoli sening zulfingdan bahs qildi.

Binafsha va ma'shuq zulfini muqoyasasidir.

ارغوان [arg'avon] 1. 1) arg'uvon, yahud daraxti (*Cercis siliquastrum*); 2) ism. Arg'avani; 2. Qar. ارغوانی

[arg'avoni] To'q qizil, qirmizi, arg'uvon. ارغوانی

[arg'avontan] *She'r. Mars (sayyora)* ارغوان تن

ارغوان Arg'uvon: “ pahlavonlar orasida mashhurdir, u bahor daraxti bo'lib juda qizil va rang barang. Uning tabiati sovuq va quruqdir... Uning arablashgani dir. (برهان) Kaplanaksimonlar oilasi Arg'uvoniylar guruhiga kiruvchi past o'sadigan (180-90sm) daraxt. Bezash uchun ham ekishadi⁶⁰. Tor shoxali daraxt, bahor paytida barcha shoxalarida qizil gullar unadi. Uning gulini ham Arg'uvon derlar. ارغوانی Arg'avoni – arg'uvonga oid demakdir.

خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385. ص. 172

انتشارات معین. www.hadisystem.ir. فرهنگ معین. 60

Hofiz she'rlarida Ar'guvon qizillik va latofat mazhari (zuhur qiladigan joyidir). Ba'zida **qizil mayga** tashbeh sifatini oladi va gohida **soqiy orazi** va yoki **yor chehrasini va ba'zan uning raqibini** bildiradi.



(10)

Bayt ma'nosi: sharob ichganing va buning natijasida chehrang terlab **yuzi qizardi**. Chamanga borasan sening chehrang go'zalligi **qizil va latif bo'lgan arg'uvonning** hasadi kelib kasal bo'ldi va uning joniga olov yoqdi. Yoki sening go'zal orazing suv bilan olovni birlashtirdi.⁶¹

___* (lilium) (loliya (lolagullarga mansub dekorativ o'simlik) [susan] 1) سوسن
(سفید) oq liliya (Lilium candidum); *مئل ___ و سیر liliya va sarimsoq kabi (ikkita bir-birini istisno qiladigan narsalar va tushunchalar haqida); 2) (shuning. ___ بری
) marvaridgul (Convallaria); 3) ayol.ism Susan.

Liliya guli besh yoki oltita gulbargi va o'rtasida ham bir necha barglari bor. Mashhur gullardan biridir. U to'rt qismdan iborat: ulardan biri oq bo'lib uni oq liliya deyishadi. O'nta tilchasi bor. Oq liliya shunday gulki, qishin yozin gullab turadi.

ozod shamshod ، شمشاد آزاد ، سرو آزاد bo'lishining sababi سوسن آزاد kabi bu giyoh va daraxtlarga hamisha yashillik xosdir. oq سوسن آزاد (ni سوسن سفید liliya = سوسن ده زبان) susan demakdir. O'n tilchalik deb qo'yilishining sababi kosabarglari gulbarglariga o'xshab oq bo'lib ularning har biri beshtadan bo'lgani uchun shu nom bilan nomlangandirlar.⁶²

Hofiz bir necha marta سوسن آزاد ، سوسن آزاده ، ده زبان ga ishorasi bor. Uning “ozodligi”, tildorligi, ayni paytda xomushligi bilan mazmunlar chiqargan:

خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385. ص. 171.
انتشارات معین. www.hadisystem.ir. فرهنگ معین.⁶²

۷ به سان سوسن اگر ده زبان شود حافظ
چو غنچه پیش تو اش مهر بر دهن باشد

(160)

Hofiz agar juda ham suxandon va aqlli bo'lsa ham, sening oldingda uyatdan oshiqqlarga xos chorasizligimdan, bezabon-u xomushman, og'zini yopib go'yo jimlik muhri og'ziga bosilgan g'uncha kabiman.⁶³

Yuqorida sanab o'tgan ramziy ma'noda kelgan lug'aviy birliklar g'azallar tarkibida tashbehlar bo'lib ham keladi. Shunday ekan tashbeh/o'xshatish, metafora nima degan savol oldimizda ko'ndalang bo'lib turibdi:

O'xshatish -Tashbeh

Poetik troplarning tasnifi Aristotel tomonidan amalga oshirilgan bo'lib shu kungacha u qadar o'zgarishlar ro'y bermadi.

O'xshatish tabiatini tushunishda biz bu poetik figurada uch a'zoni ajratib ko'rsatgan B. V. Tomashevskiyning konsepsiyasi va terminologiyasiga qo'shilalmiz: o'xshatish predmeti, o'xshatish obrazi va o'xshatish belgisi.

“...kabi”, “xuddi... dek” yordamchi so'zlari va shuningdek bu yordamchi so'zlar qatnashmagan fors she'riyatida ادات تشبيه (“o'xshatish vositalari”) ni o'xshatish deb hisoblaymiz.

Rang ifoda belgilari ro'yxatiga ko'ra, forsiyzabon shoirlar juda ko'p turli o'xshatish qo'llash uchun qizil rangni ishlatishni afzal deb bilishgan. O'sha davr fors she'riyatida o'xshatilayotgan predmet va obrazlarning o'zaro joy almashish hodisasi xosdir. Masalan, ma'shuqa yuzi atirgulga o'xshatilishi, yoki atirgul yor yuziga o'xshatilishadi. “sen-porloq quyoshsan” ham o'z o'rnida “sen, quyosh kabi porloqsan” ga tenglashtiriladi.

خرمshاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385⁶³ 622 ص.

Metafora qisqargan tashbehga aytiladi. Bunday tushinish Arastudan boshlanib zamonaviy nazariyotchilarning barchasi tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Metafora tashbehga yetishmayotgan a'zosini qayta tiklash vositasida yana tashbehga aylantirilishi mumkin.

Pelts metaforani o'zida yuqori nuqtasi E – metafora, E_2 – metafora predmeti, E_1 – metafora obrazi dan iborat uchburchakni aks ettiruvchi semantik struktura deb hisoblaydi. Avvalo metaforani ikki ot so'z turkumiga oid (“qaratqich kelishigidagi aniqlovchili metafora”, B.V. Tomashevskiy termini bo'yicha). Masalan, forsiy metafora گل روی (“gul yuzli”) (E) metofara گل (“atirgul”) “yuz” ma'nosida, metafora obrazi (E_1) – گل (“atirgul”) o'z ma'nosida, metafora predmeti esa (E_2) – روی معشوق (“ma'shuqa yuzi”) bu ma'no matn ifoda topadi, u faqat nazarda tutiladi)

Metaforaning 3 turini ko'rishimiz mumkin:

- Ismiy aniqlovchili metafora گل روی
- Sifat ko'rinishidagi metafora عزم تیز گام
- Fe'l ko'riinishidagi metafora گل خندد

Bu ularning ma'nolarida yana qo'shimcha ma'nolarni beradi:

Ma'shuqa (mamduh) uchun tashbehlar	Ma'shuqaning og'zi uchun tashbehlar
گل	غنچه
سرو	Ma'shuqa labi uchun tashbehlar
غنچه	گل نیم گفته - chala ochilqan atirgul
گل بهار	لاله
Lirik qahramon uchun tashbehlar	Ma'shuqaning iyangiga tashbeh
	نسرین – na'matak.

گل	Sharob uchun tashbehlar
برگ لاله	شقاییق – lolaqizg'aldoq (красный мак)
هیزم	گلاب – gulob
Soch, gajak, zulfiga tashbehlar	لاله lola
ریحان	Jom uchun tashbehlar
شنز	برگ گل سپید oq gulning bargi
گل سرخ	بنفشه – binafsha
مشک	Bilim uchun tashbeh
سنبل	گل
بنفشه	نرگس
Ma'shuqa chehrasi, yuzi, lunji uchun tashbehlar	Bu dunyo
گل	عود
غنچه	Ma'shuqa ko'zi uchun tashbehlar
لاله	نرگس
Ma'shuqa qomati uchun tashbeh	May uchun tashbeh
سرو	ارغوان
صنوبر	Joynamoz
	سوسن

Yuzdan ortiq uchraydigan o'simlik dunyosiga oid so'z guldur. Gul Hofiz g'azallarida nafaqat o'simlik dunyosiga oid, balki tabiat ma'nosiga oid so'zlar orasida ham eng ko'pi. Gulning lug'aviy ma'nosi lug'atda quyidagicha keladi:

*گل چایی; 1) gul; 2) atirgul (Rosa); *گلچامبار, bagak; 3) *turg'un birikmaningturli gullar nomini bildiruvchhi 1-inchi tarkibiy qismi, masalan.:* *گل ابریشم ipakli akas, akatsiya (Albizzia); *گل اختر hind shoyiguli (Canna indica); *گل استکان gladiolus (Gladiolus); *گل اشرفی gulhamishabahor (Calendula); *گل اهار sallagul, piongul (Paeonia); *گل برف boychechak (Galanzus); *گل بوشهری rododendron, alp atirguli; zaharli azaliya (Azalea pontica); *گل پنیرک qar; *گل خبازی; *گل برف qar; *گل حسرت gulxayri; *گل پنیرک a) kaktus (Cereus); *گل خنجرى agava (katta-katta bargli tropik o'simlik, Markaziy Osio va Kavkazda bezak guli sifatida ekiladi) (Agave); *گل داودی xrizantema (guli chaman bo'lib ochiladigan o'simlik va shu o'simlikning nomi. Chrysanthemum); *گل دشتى na'matak, itburun (Rosa); *گل ternovnik qar. Tyorn (mevasi mayda olxo'riga o'xshagan buta o'simlik hamda shu o'simlik mevasi) (Prunus spinosa); *گل شب بو shabbo'y (krestgullilarga mansub xushbo'y gulli dekorativ o'simlik (Matthiola); *گل قاصدى qoqio't, momaqaymoq (Taraxacum); *گل damashq atirguli; *گل مرا فراموش مکن bo'tako'z (Myosotis); *گل دastorgul (Bellis); *گل مریم tuberoza, tabargul (xushbo'y oqgulli o'simlik (Polianthes); *گل ناز achchiq sedum, semizak (Sedum acre); 4) so'xta, qasmoq (*shamdagi, pilikdagi*); 5) gul, durdona, ajoyib (*kim haqida-r.*); *گل چیدن gul termoq; *گل دادن gullamoq; *گل گار karmoq, ko'karmoq; *گل کردن olma daraxti gulladi; *گل سیب داد ochilmoq;

paydo bo'lmoq, ko'rinmoq, topilmoq; gul o'tqizmoq, ekmoq; گل آتش * yonayotgan o'tin; cho'g' bo'lib turgan o'tin bo'lagi; سر سبد * گل * eng yaxshi vakili; jamiyat bezagi; گل سینه * broshka, to'g'nag'ich; گل کلم * gulkaram; گل انداختن| qizarish (yuzning, labning); og'z. aniq, oqilona, ziyraklik bilan gapirmoq; || (انداختن) a) ishni rasvosini chiqarmoq; 6) hiyla-nayrang qilmoq, shikallik chiqarmoq; گل از گلش شکفت u juda xursand bo'ldi; گل به چشم Og'z., shun. kinoya. Ofarin!, ajoyib!; گل به چشم! va جمالت! جمالت! ko'zimda dog' paydo bo'ldi; og'z. uning juda hazillashgisi kelib turibdi, bugun uning kayfiyati juda o'ynoqi; sho'xligi tutib ketdi. 64

Xo'rramshohiy, Gul va nasrinni bir-biridan ajratib bo'lmaydi – deydi. Shuning uchun ham mazkur so'zni shu yerda berishga qaror qildik.

نسرين [nasrin va nesrin] 1) bot. nasrin (Narcissus jonquilla) ((nargisning yovvoyi o'sadigan turi); 2) Ayol.ism Nasrin.

“Hofiznomada”:

گل و نسرين va shuningdek gul nomi ostida : benafshe; sousan; lole; narges; nastarin.

go'l o' nasrin: muhim jihat shuki, bu birikmani vov siz – go'l nasrin shaklida- o'qib bo'lmaydi. Hofizda bir necha bora go'l o' nasrin qo'llangan bo'lib ikkita gulga ishoradir, biri qirmizi gul yoki atirgulga; ikkinchisi nasrin gulliga. Shuni ham bilmoq kerakki ورد atirgul so'zi arabiy so'z emas balki talaffuzdagi o'zgarishlar bilan arabilashgan avesto va pahlaviy tillariga oid ورد (vird) yoki varide so'zidir. O'sha so'z o'zgargan gul so'zidir (bu haqda qarang: Moinning “Borhon bo'yicha...” “go'l” so'ziga yozgan izohi). Go'l forsiy she'riyat va Hofiz she'rlarida aynan o'sha ma'noda keladi va ba'zida qizil ma'nosida ham keladi⁶⁵.

“Go'le hamro”⁶⁶: Doktor Xonlari yozadi: “Qadimiy va noyob ba'zi nusxalarda go'le hamridagi “hoyi hutti” harfi nuqtasiz kelgan. Boshqa nusxalarda go'le hamro ga aylartirganlar. Ammo “go'l” ga muannas sifatini keltirishga asos

⁶⁴ Персидско русской словарь.2 том. Под редакцией Ю.А.Рубинчик. Советская энциклопедия. Москва.-1970

⁶⁵ خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385. ص. 305

⁶⁶ خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385. ص. 213

yo'q. Men bilganim qadar hech bir boshqa she'rda gulga nisbatan bunday sifat keltirilmagan...⁶⁷

گل خمری “go'le xamri(o)” dagi “xamri” arabiy qoraga moyil qizil rangni bildiradi... xamr (sharob) rangiga o'xshash...⁶⁸

گل پارسى - juda qizil va xushrang bir gul nomi bo'lib, صد برگ - yuz barg, گلنار پارسى gulnor - ham deyishadi

گلنار پارسى - anorlardan bo'lib, uning guli yuzbarg va juda qizil⁶⁹.

Bu yerda qiziq jihat shuki, “Tabiat” lug'aviy ma'no guruhidagi eng ko'p lug'aviy birliklarning birinchi 5 talikda گل 1-o'rinda, eng ko'pi:

197	گل	1
138	خاک	2
118	آب	3
115	باد	4
81	آتش	5

Undan keyingi tabiatga oid 4 so'z – tuproq, suv, shamol, olovdir. Bu to'rt unsur hayot, tabiatning tarkibiy unsurlari deyishadi. Butunjahon san'ati adabiyotida bugungi kun va tarixda **beshinchi unsur** haqida ko'plab san'at asarlari dunyo yuzini ko'rdi. Bizning fikrimizcha Hofiz dahosi bugun bizga beshinchi unurni ko'rsatmoqda va bu unsur butun tabiatni mutlaq haqiqat bilan bog'lab turuvchi robitadir, uningcha eng asosisiysidir.

Biz gul ramzini o'rganar ekanmiz bu ramz serqirra ma'nolarga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Biz qo'limizdan kelgunicha mazkur lug'aviy birlik ifodalagan ma'nolar, uning Hofiz nazdida qanday ma'nolar kasb qilganini o'rganishdir.



⁶⁷ المعجم. تصحيح رضوى، چاپ تبريز، ص 257

⁶⁸ ديوان حافظ، به تصحيح و توضيح پرويز نائل خانلرى، ج 3، ص 1220

⁶⁹ نوربخش، دكتور جواد. فرهنگ نوربخش «اصطلاحات تصوف» 2. چاپخانه تهران. 1377. ص 110

Bordim saharda boqqa gul terish uchun

Nogoh qulog'imga bulbul ovozi chalindi.

Bu baytdagi **gulni o'z ma'nosida** tushunsak bo'ladi.

“ Hofizning mazkur g'azali ko'p temalilikdan holi. She'r shoirning boqqa kirgani bilan boshlanib, zamonning bevafoqligi, adolatsizligi tufayli gullarning bulbullarga nasib bo'lmasligidan zorlanish va afsus nadomat bilan tugaydi” – deyiladi Hofiz devoni tarjimasidan namunalar kitobiga yozilgan muqaddimada⁷⁰. Ko'pchilik tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, universal va “haqiqat sirrini majozg'a yashiringan”ligini hisobga olsak bundan o'quvchi yoki tadqiqotchi estetik zavqi, bilim va kamolot darajasiga qarab qo'shimcha xulosalar chiqarishi mumkin. Shu nuqtai nazardan biz bildirgan fikrlarni mutlaq haqiqat deb emas, balki nisbiy deb qabul qilish kerak.




Yoshlik davri ravnaqi endi bo'stonda

Xushovoz bulbulga gul xushxabari kelmoqda

Forsiy g'azaliyotda bulbul va gul – oshiq va ma'shuqa timsolidir. Bu baytda gul – **yor, ma'shuqa** ma'nosida.

Hofiz ijodida g'azalning asosiy obyekti ma'shuq (dunyoviy ma'shuqa) nafaqat **ma'bud** (ilohiy ma'shuqa , Xudo) bilan ajralmas holda bog'lanadi, balki an'anaviy qasida obyekti bo'lmish – **mamduh** (madh qilinayotgan)ni ham ifodalaydi⁷¹.



(380)

⁷⁰ Ochilov E. muqaddima. She'r guldastasi. T.: Sharq. -2010.12-b.

⁷¹ Рейснер М.Л. о'sha asar C.8.

Agar men tikan bo'lsam va agar gul chamanoro bo'lsa,

U uzatgan qo'ldan men o'saman

Bu baytda “chaman” jamiyat, gul “jamiyatdagi o'z o'rniga ega odam”, “tikan-men-lirik qahramon”, “u uzatgan qo'l” - “u bergan yordam, ilmi yoki tajribasi bilan” “o'saman” (gul) – “o'smoq – jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmoq” ma'nosida bo'lsa.

Bu yerdagi gul ramzi murabbiyga dalolat qiladi. Maqolda ham aytilganidek, “otang seni osmondan olib tushsa **ustoz** seni osmonga olib chiqadi.



(18)

Allohga shukrkim, kuz raxnalaridan omon qoldi

Yosumon, sarv, gul, shamshod bog'i

Bunda kuz o'simliklar uchun so'lish davri, ammo bu baytda omon qoldi deyilmoqda, bu bizningcha Hofiz davri talotumlari o'zaro urushlaridan (ma'lumki Hofiz davrida bir qancha taxt almashinuvi ro'y bergan) omon qolgan **odamlarga** (fuqarolarga) ishora qilinmoqda.



(19)

Hofiz, chamanda dahr xazon shamolidan ranjima,

Ma'qul fikr aytgin, tikansiz gul bo'larmi?

Bu baytda “tikansiz gul bo'lmas” deyilmoqda, ya'ni har zahmatsiz, **rohat** bo'lmas, qiyinchilik ortidan xursandchilik bor, deyilmoqchi.

۱ صحن بستان ذوق بخش و صحبت یاران خوش است
وقت گل خوش باد کز وی وقت میخواران خوش است

Zavqboxsh bo'ston sahni va yorlar suhbatı yaxshidir

Gul hamisha xursand bo'lsin! Undan mayxo'rlarning vaqti xushdir

Zavqboxsh bo'ston – yorlar suhbatı yuz beradigan an'anaviy mayxona bo'lsa, Gul – **may quyub beruvchining** kayfiyati yaxshi bo'lsa, mayxo'rlarning ham vaqtichog'dir. May quyub beruvchining tagma'nosi ham mavjud bu haqda keyingi bobda

۸ می بیاور که نیازد به گل باغ جهان
هر که غارتگری باد خزانی دانست (48)

May keltirgin, jahon bog'i guli bilan nozlanmasin,

Barcha xazon shamolining bosqinchiligini bildi.

Bu jahon bog'i guli kuz shamolida uning umri tugashiga ishora qilinyapti. Bundan bu “jahon guli” deganda bu **dunyoga** va unga oid moddiyotlarga ramzga to'g'ri kelmoqda.

۱۱ حافظ منشین بی می و معشوق زمانی
کایام گل و یاسمن و عید صیام است (46)

Hofiz bir zum ham may va ma'shuqasiz o'tirmagin

Chunki gul va yosumon kunlaridir va ramazon bayrami


Baytdan “Gul va yosumon kunlari” deganda **bahor** ma'nosi sezilib turibdi.

۲ غنیمت دان و می خور در گلستان
که گل تا هفته دیگر نباشد (162)

G'animat bil va gulistonda may ich

Gul keyingi haftagacha bo'lmasligi mumkin.

Gul bu baytda **jon** ramzidir.



(416)

Sening ishqing bilan agar bir kun dunyodan o'tarsam

Qabrimdan qizil gul unsin, giyoh o'rniga

Bu bayt mashhur Umar Xayyom ruboiysini esga soladi:

Shunday ichayki, o'lsam ul sharob

Hidi mozorimdan chiqsin gurkirab.

Xumori o'tarsa qabrim boshidan

Isi elitsinu aylasin xarob

Qizil gul – **may** ramzidir.



(130)


Tarjima:

U sunbul zulfi guldan parda ochdi,

Tugundan g'uncha chiqdi sof havoga. (T. 1958.89. Xurshid)

Yuzaki o'qigan odam gap gul, g'uncha haqida ketayotir deb o'ylashi mumkin. Aslida, Hofiz zulfni ilmoqqa o'xshatib, u go'zal yuzidagi pardani ochdi. Shunda yorning ruxsori ko'rindi, demoqda. Zulf ko'plik, bilib bo'lmaslik, chigallik timsoli, yuz esa **yagonallik, ravshan olam va aniqlik**. O'sha ko'plikning bir

zuhuri sifatida namoyon bo'layotir. Bu aniqlik noaniqlikdan ajralib chiqqan, shuning uchun Hofiz tasviricha, yuz zulf ilmog'iga osilib turadi⁷².



Ey sahar qushi yana dovudiy nag'mangni chal

Sulaymon guli shamoldan keldi.

Bu yerda sulaymon guli Sulaymon (a.s.) **taxtiga** ramzdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek tashbehlar ham ramz ma'nolarini ochishga ko'maklashadi:

Gulga berilgan tashbehlar uning ma'no qirralarini yanada ochishga yordam beradi:

نسیم گل – دل

عارض – گل

oshiq – گل

ایام گل – عمر

روی رنگین نماید – گل

تو – گل خرم و خندان

عمر ما – گل

حافظ – گل

باغبان – بلب

آتش – گل

نشأت و عیش و جوانی – گل

فیض حسن تو – آب روی لاله و گل

تو – سوسن و گل

حریفان – لاله و گل

یار بخندید - گل بخندید

Metafora

گل آجال بهار بی باده - گل بی رخ یار

⁷² Azimov M. Hofiz Sheroziy va o'zbek adabiyoti. Toshkent. Minhoj. 2004.18-b.

گل اندام	گل گهو و طرب
	نقاب گل

گل lug'aviy birlikining hofiznomalarda va lug'atlarda ko'rsatilgan ma'nolaridan tashqari quyidagi ma'nolarini ko'rishimiz mumkin:

✓ Gul	Tashbehlar:
✓ yuz	✓ qomat
✓ yor, ma'shuqa	✓ olov
✓ ma'bud	✓ umr
✓ mamduh	✓ dil
✓ ustoz	✓ aysh, yoshlik
✓ odamlar	✓ lirik qahramon
✓ rohat	✓ bog'bon
✓ may quyub beruvchi	✓ Hofiz
✓ dunyoga oid moddiyotlar	
✓ bahor	
✓ jon	
✓ may	
✓ yagonallik, ravshan olam va aniqlik(borliq)	
✓ taxt	

III bob.

O'simlik ramzlarining tasavvufiy ma'nolari

Taniqli tojik adabiyotshunos olimi, akademik Abdug'ani Mirzoyevning yozishicha, forsiy adabiyotda g'azalchilik tasavvufiy va dunyoviy yo'nalishda rivojlanib, Hofiz o'z ijodida ana shu ikki oqimni birlashtiradi ⁷³

Tariqat (tasavvuf) – muomilat va muhabbat ilmidir.

Tariqat va uning maqomotlari 1-bo'lib Zunnun Misriy bayon qilgan. Navoiy : “Ul kishikim ishoratni iboratqa kelturdi va bu tariqdin so'z aytdi”deb ta'rif berganlar.

Zunnun tasavvufdan 1- bo'lib “so'z aytgan” bo'lsa, Junayd Bag'dodiy “bu ilmga tartib berib, bast qilib so'ngra Junayd Bag'dodiy “bu ilmga tartib berib, bast qilib kutub bitidi (“Nasoyim ul Muhabbat”)

So'ngra Junaydning kichik zamondoshi Abubakr Shibliy bu ilmni minbar ustiga olib chiqib elga oshkor qildi.

Abu Said abul-Xayr (967-1049) ham o'z va'zlarida ruboiylardan foydalangan.

Bunda shayxlar ilohiy ishqni vasf etish uchun asosan, dunyoviy lirikadan foydalanishgan. G'azzoliy ham samo' uchun ayni ishqiy qo'shiqlar zarurligini ta'kidlab ko'rsatadi. Biroq ruhiy hayajon o'rniga jismoniy shavq uyg'otadigan qo'shiqlardan ehtiyot bo'lishga chaqirgan.

Demak, shayxlar samo' uchun ramziy sharhga imkon beradigan she'rlarnigina tanlashlari lozim bo'lgan. Ana shundan kelib chiqib o'sha paytlardayoq zo'rma-zo'raki ramziy talqin qilinuvchi she'rlar emas, chinakam, maxsus yozilgan ramziy she'riyatga ehtiyoj yuzaga keldi.

Ma'lumki, tasavvuf ahli – so'fiylarning e'tiqodicha islomda bo'lganidek, olamni xudo yaratgan. Ungacha vujudi mutloqdan bo'lak hech narsa bo'lmagan. Shuning uchun borliq Haqning husnu jamolini aks ettiradigan oyna timsolida bo'lishi kerak. Lekin tabianning yaratilishidan maqsad insondir. Inson xudoning

⁷³ Mirzoyev A. Foni va Hofiz// Navoiy va adabiyot ta'sir masalalari (maqolalar to'plami). – Toshkent. 1968. 54-57

sevgisiga sazovor. Shuni u mukammal fahmlamog'i zarur. Xudoning ishq bamisoli may. Bu mayning qadahi inson qalbi. Shu qadahga ishq mayi qancha ortiq quyilsa, odamdagi yuksak ma'naviy ruhiy intilishlar o'shancha kuchayadi⁷⁴.

Tasavvuf ta'limoti asosida Sharq adabiyotida yangi adabiy oqim vujudga keldi. Bu oqim tarafdorlari o'z asarlarida xudoning yerdagi in'ikosi-insonni ulug'lashga e'tiborni qaratdilar. Yor deganda dilbar bilan bir qatorda Xudo ham, visol deganda, kishi ruhining Haqqa qo'shilib ketishi ham tushuniladigan bo'ldi. G'azallarda majozilik kuchaydi, baytlarning ochiq va yashirin ma'nolari degan tushunchalar paydo bo'ldi.

Bu an'anaga birinchi bo'lib arablar orasida Ibn Arabiy asos solganligi haqidagi olmon dinshunosi va tasavvufshunosi A.Shimmelning fikrlarini keltiramiz:

“Ibn Arabiy shu yo'l bilan, ya'ni ilgari Sevilalik ayollar bilan uchrashib o'zini makkalik karomatgo'y, ilhomlantiradigan bir ayol bilan uchrashuvga tayyorlaganga o'xshaydi. Bu ayol bilan muqaddas ziyoratgohdagi Ibrohim maqomi imomining qizi Nizom edi. Ibn Arabiy jo'shib, oyatlar tilovat qilib, ekstaz holatida Ka'batllohni aylanib ziyorat qilayotganda shu qizga duch keladi. Qiz uning tilovatlarini, Ibn Arabiyni lol qoldirgan holda ularning mag'zini chaqib beradi. Bu go'zal qiz bilan bo'lgan uchrashuvning natijasi o'laroq Ibn Arabiyning “Tarjummon ul-ashvoq”, ya'ni “Ehtiroslar tarjimoni” nomli she'rlar to'plami vujudga keladi. To'plamdagi she'rlar arab ishqiy poeziyasining an'anaviy uslubida yozilgan bo'lib, ularda klassik she'riyatning andozaviy siymolari bo'lmish oshiq va ma'shuqa o'zrtasidagi ishq kuylanadi. Ma'lum vaqt o'tgach Ibn Arabiy o'zining bu ishqiy she'rlariga mistik-falsafiy izohlar yozib, she'riyatda yangi bir yo'nalishni boshlab berdi. Biroz keyinroq faoliyat ko'rsatgan so'fiylar o'zlarining may, ishq, hijron to'g'risidagi she'rlariga ham shunaqa sharhlar yozib, ularni o'qimishli qilishni lozim topdilar yoki endi ishq, may va hijronlarning ma'nosi kengayib Alloh taologa nisbatan bo'lgan ishqni anglata boshladi. (afsuski, ko'pgina hollarda

⁷⁴ Bo'riyev O. Tasavvuf tarixi fanidan ma'ruzalar matni. ToshDSH.2000. 27-b

bunaqa sharhlar o'ta cho'zilib ketganligi sababli, tabiiy, tasavvurga sig'adigan holatlar bilan notabiiy, tasavvurga sig'maydigan holatlar o'rtasidagi muvozanatni barbod etib, kapalakdek nozik-nihol she'rlarni metafizik ta'limotning qisqacha qo'llanmasiga aylantirib qo'ygan).⁷⁵


Tasavvuf Hofiz ijodiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Bu esa rind shoirning qarama-qarshilik va ziddiyatga to'la ijodini tushunishni yanada murakkablashtiradi. Sharqning ko'pchilik she'rxonlari Hofiz g'azallarini ikki xil ma'noda, ba'zilar esa, asosan, ikkinchi ma'noda qabul qilishgan. Darhaqiqat, shoirning ko'pgina g'azal va baytlarida tasavvuf ta'limoti ta'siri ko'zga yaqqol ashlanadi.

Shoir g'azalda ham dunyoviy sevgini ulug'lash, ham tasavvufona g'oyalarni ifodalashning yuksak, mumtoz namunasini ko'rsatgan.

Shoir Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, haqiqat siriga majoz aralashtirgandir.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida bu xususda to'xtalib: "Xojalar silsilasidan azize debturki, hech devon Hofiz devonidan yaxshiroq emas, agar kishi so'fiy bo'lsa. Bu faqirga andoq ma'lum bo'lubtur va mashhur mundoqdurki, hazrati Mir Qosim alarning devonini Qur'oni Forsiy der ermishlarki, kalom oyoti ma'nosidan mamlu' va asror va nukotidin mashhundir".⁷⁶

Hofizni o'zi ham buni shunday ta'riflaydi:



Ertalab turgin-u salomatlik so'ragin Hofiz,

Nimaiki qilgan bo'lsam, Qur'on davlatidandir.⁷⁷

⁷⁵ Shimmel A. Jonon mening jonimda. Isom olamida xotin-qizlar siymosi. Toshkent. Sharq. 1999 56-57-бетлар.

⁷⁶ Alisher Navoiy. Asarlar. T.15.-T.:G'.G'ulojm nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1968. 184-6.

⁷⁷ Ochilov E. Hofiz Sheroziyning Ishq Gavhari (G'azallar, soqiynoma, tarje'band, qit'alar, ruboiylar). – Toshkent: Sharq. 2006. 11-b

Tasavvuf arboblari keng o'rnak bo'lgan hazrati Ali (k.v)ning ashob orasidagi o'rni bo'lakcha. Nihoyat darajada taqvo egasi bo'lgan hazrati Ali haqida hadisi sharif ham vorid bo'lgan: “Albattaki, Qur'on yetti harf uzra nozil bo'ldi. Har harfning zohiri va botini bor. Ali ibn Abu Tolibda zohir va botin ilmi mavjud”.

Dastlab shaxsiy zuhd hayoti sifatida boshlanib, keyinchalik esa bir tomondan ijtimoiy ahamiyat kasb etib, ikkinchi tomondan amaliyotdan nazariyaga intiqol etgan va ilohiy ishq, ma'rifat, fano, baqo va hokazo mavzularni tarannum eta boshlagan tasavvuf – Muhyiddin ibn Arabiy fikrlari bilan o'ziga xos usul va izoh tarzlariga ega bo'lgan mustaqil bir falsafaga aylandi. Ibn Arabiy bir tizimga solgan bu tasavvufiy falsafaning nomi – “vahdati vujud” bo'lib, qisqa ma'nosi “Allohdan boshqa borliq yo'q, boshqa barcha borliqlar uning ismi va sifatlarining tajallisidir”. “Vahdati vujud” falsafasi Ibn Arabiydan keyin Sadridin Ko'nyaviy, Faxriddin Iroqiy, Abdurahmon Jomiy va boshqa shaxsiyatlar tomonidan shakllantirilib, tasavvufiy tushuncha tarziga buyuk dinamizm baxsh etdi. Deyarli barcha tariqatlar tomonidan tan olingan va tez oradakeng tarqalgan bu falsafa, asrlar mobaynida davom etib Eron va Onado'lida jo'shqin ma'nodor tasavvuf adabiyotining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Hofiz, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Niyoz Misriy va yana ko'plab shoirlar o'z asarlarida asosan “vahdati vujud” g'oyasini olg'a surganlar⁷⁸.

Sayru suluk tasavvufiy istilohda esa tariqatga kirgan har bir solik tanlagan yo'lining boshidan to vuslat maqomiga erishuviga qadar, ya'ni tariqatdagi g'oyasining ro'yobga chiqishiga qadar bosib o'tgan qalbiy va ma'naviy safari ma'nosini anglatadi. Sayru suluk tamoman ruhoniylar hodisa bo'lib, murid tariqat asoslari doirasida qilgan ibodati, duolari, riyozati, mujohadasi, xilvati va tafakkuri natijasida ruhining tadrijiy soflashuvi va ilohiy haqiqatlarni anglashiga to'sqinlik qiluvchi pardalarning ko'tarilib, asliy o'zligiga erishuvidir. sayru suluk asnosida solik nafsida paydod bo'ladigan o'zgarishlar e'tiborga olinib, nafsni yengish safaridagi kamolot sari yo'nalgan darajalar ham yetti martaba-bosqichdan iborat bu

⁷⁸ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T.: Istiqol. 1999.60-b.

darajalar sifatida tartibga solingan. Hofiz she'rlarining tasavvuf ahli nuqtai-nazaridan mo'tabarligini hisobga olsak, shoyad solikning sayru sulukda mazkur nafs martabalarida ochilgan sirlariga, g'azallarini turli ma'noda anglagani uchun ham shoirning g'azaliyoti haqida “شعر حافظ هفت پرده روی هم دارد” (Hofiz she'ri yeti pardaga o'ralgan”), forsiy Quron degan nomlari bejiz emasga o'xshaydi.

Tasavvufda ramz tushunchasini shunday sharhlashadi: ramz xoslar o'z hollarini bayon qilish va boshqa maqsadlarda o'zi kabi xoslar tushunishi uchun maxsus so'zlardan foydalanishiga nisbatan ramz deyiladi.⁷⁹

Tasavvufda shariat va tariqat orasidagi zohiriy ixtiloflarni hal qilish yo'sini haqida M.L. Reysner va Chalisova hammualliflikda yozgan maqolasida Attor ijodida Halloj obrazini ta'riflayotib quyidagidek sharh berishdi.

Halloj - A'ttor zohir va botin, shariat va tariqat munosabatlari ikki naql-hikoyada talqin qilinadi; birinchisida aytilishicha, Hallojni jazolayotgan jallodning qo'llari zarba paytida hatto qaltiramadi ham, chunki u shari'at bo'yicha to'g'ri yo'l tutayotgandi, - bu yerda shari'at va tariqat qarama-qarshi qo'yilgan. Ikkinchi naql-hikoyada aytilishicha, Hallojni ayblashayotganlar agar ular Hallojga qarshilar bo'lishsa ikki yaxshi ish qilmoqdalar, tarafdorlari esa faqat bitta yaxshi ish qilmoqdalar. Chunki, Halloj tarafdorlari uni qo'llab quvvatlagidan maqtovg'a arzigulik bo'lishsa, qarshilar esa *tauxid* (“*tavhid*”) kuchidan shari'atga mahkam yopishib olishdi. *Tauhid* esa – shari'atning asosi, yaxshi fikr esa uning shahobchasi xolos.⁸⁰

Shunday qilib, A'ttor zikrda Halloj biografiyasining botiniy va zohiriy tarkibida “Men *shariatni* asrash uchun yuborildim” deydi.

Bu fors she'riyatidagi, xususan, rindlik adabiyotiga sharh desak xato bo'lmaydi. Tasavvufning bugungi kundagi ba'zi g'oyaviy ziddiyatlarini Hofiz tariqi-rindlik hal qiladi. Hofizning universalligi quyidagi baytda ko'rinadi⁸¹:

Ertalabki mastlikdagi rindlar qalbiy sofligidan

Istak kalitlari bilan ko'pgina eshiklarni ochish mumkin.

⁷⁹ سجادی. تصوف و عرفان. تهران. تهران 1380. ص. 102.

⁸⁰ Fariddin Attor. Tazkirat-ul avliyo. (Mirzo Kenjabek tarjimasi). Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1997 143-bet.

⁸¹ Рейснер М.Л. о'sha asar C.8.

Tasavvufning soha sifatida rivojlanishi uning adabiyoti rivojlanishiga ham hissa qo'shdi. Tasavvufiy ramzlar rivojlanib ramzlar aynan bir ma'noni anglatish uchun mustahkamlandi. Ramzlar bir ijodkor ijodiyotida paydo bo'lib barcha tomondan qabul qilingandan so'ng ular terminlarga aylandi.

A. Quronbekov bu haqda ilmiy maqolasida shunday yozadi: Ilm-fan sohasida ilmiy terminlarning guruhi aniqlanadi. Bu guruh, umumiy tarzda olganda, ilmiy-texnik taraqqiyotning muayyan bosqichida ilm-fanning qancha turi mavjud bo'lsa shuncha klasslarga ajralib ketadi. Soha terminlarining har bir klassida esa mazkur ilm-fan ob'ektlari va qonuniyatlarini tavsiflovchi turli mustaqil nazariyalar qancha bo'lsa shuncha guruhchalar(terminosistemalar) ajraladi.

Har bir tilda ishlangan sohalar terminologiyasi u qadar ko'p miqdorni tashkil etmaydi. Terminologik faollik har bir sohaning samaradorligi, taraqqiy etganligi kabi holatlar bilan ham belgilanadi⁸²(1,4). Fors tilidagi tasavvuf terminosistemasi bugun, hatto yaqin o'tmishda ham vujudga kelgan emas, balki juda boy an'ana va shakllanish jarayonlaridan o'tib kelgan.

Ma'lumki, tasavvuf adabiyoti o'zining o'ta ramziyligi va serqirra ma'nolar majmuasini jamlaganligi bilan ajralib turadi. Bir qarashda oddiy va sodda bo'lib ko'ringan hamda kundalik hayot mavzulariga bag'ishlangan nazmiy va nasriy satrlar, so'z va so'z birikmalari ortida chuqur falsafiy mushohada, ma'rifat va ma'naviyatga etaklash, foniy va boqiy dunyo qarama-qarshiliklaridan ogoh etish mazmuni yashirib yotadi. Doktor Qosim Ansoriyning yozishicha: «So'fiylar o'z maqsadlarini bayon etish uchun maxsus istilohlardan foydalanadilar... So'fiya tili soddalikdan murakkablikka, osonlikdan mushkullikka, ochiq-oydinlikdan ramziylikka qarab o'zgargan. Irfoniy kalima va ta'birlar hissiyotlarga to'la hamda oriflar tili ko'chma ma'noli bo'lib, ichki dunyo hamda donishmandlik sifatlariga tayanadi...»⁸³.

⁸² Сусперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. С. 4

⁸³ دکتر قاسم انوری. مبانی عرفان و تصوف. تهران، چاپ اول ۱۳۷۰، ص 53

Fikr-mushohadalarning parda ortiga yashirilgani, aniq mazmunli nutq birliklarining ramziy qo'llangani bu adabiyot ixlosmandlari uchun tegishli ma'noni anglashda ko'pincha ikkilanish va xatto, noto'g'ri talqin qilish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, tasavvuf yoki irfoniy adabiyot eronshunoslar, ayniqsa, Eronning ko'zga ko'ringan tadqiqotchilari diqqat markazida o'rin olib kelmoqda. Tasavvufdagi badiiy san'atlar, ifoda vositalari, obrazlar tizimi va albatta, tasavvuf terminlari qator-qator izlanishlar ob'ekti bo'lgan⁸⁴. Biz tasavvuf istilohlari qatoridan o'rin olgan o'simliklar nomlariga diqqatimizni qaratamiz

Biz quyida tasavvufiy manbalardan o'simliklarga oidlarini imkon qadar topishga harakat qildik, ammo bunday manbalarda aynan o'simlikka oidlari juda kamchilikni hosil qiladi.

ريحان

Mukammal poklanish va riyozatdan hosil bo'ladigan nurdir

(لمعات عراقی)

سبزه

Ilohiy ma'rifat hayot chashmasidan yashirin paydo bo'luvchi ruhoniyyat safoligidir.

(مرآت عشاق)

سبزه خط تو دیدیم و ز بستان بهشت

به طلبکاری این مهر گیاه آمده ایم

(حافظ)⁸⁵

Ma'rifatning o'ziga aytiladi.

(رشف الالحاظ فی کشف الالفاظ ص 72)

⁸⁴ Quronbekov A. Tasavvufiy istilohlar. Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi. Toshkent. TDSHI. 2010.

⁸⁵ Bu yerda ma'nosiga putur yekazmaslik uchun tarjimadan saqlandik

شکوفه

Martaba ko'tarilishiga aytiladi

(لمعات عراقی)

غنچه

Sifatarlar pardalari va dilni shunday nomlashadi.

(لطیفه غیبی)

صبا ز حال دل تنگ ما چه شرح دحد

که چون شکنج ورقهای غنچه تو بر توست

(حافظ)

روی تو کس ندید و هزارت رقیب هست

در غنچه ای هنوز و صدت عندلیب هست

(حافظ)

نرگس

Xursandchirlik, xushvaqtlik, qo'shimcha amaldan dilda paydo bo'ladigan ilm natijasidir,

(لمعات عراقی)

Hirof pir shunday deydilar:

Bu anduh (ishq) oshiq diliga soya solganida, momaqaldiraq gumburlaydi, umid yorug'ligini qidira boshlaydi, dil maydoniga murod yomg'iri yog'adi va turli gullar unib chiqadi.

Ba'zan esa نرگس rizodir, organ (musiqa asbobi) – qano'at, ba'zan liliya tavakkul, gohida yasmin tavoze'...

کشاف الاسرار _ میبیدی ج 10 ص 40

Ko'zni ham aytishadi

دلم ز نرگس ساقی امان نخواست به جان

چرا که شیوه آن ترک دل سیه دانست

(حافظ)

Demak ko'zga oid tasavvufiy terminologiyani birma bir "nargis" qatnashgan

Ko'z haq shuhudiga ishoradir. Mening ko'zlarim bor va ularning iste'dodlari va bu shuhud – ko'rish sifati degan ma'noda. So'fiyona istilohda چشم مصعوم علیشاح، jamol ko'zi deb Allohni ko'rish sifatiga nisbatan qo'llaniladi⁸⁶ (طرایق 6/26)

لاله

Mushohada qilinadigan Ma'rifatlarga aytiladi

(لمعات عراقی)

میکشیم از قدح لاله شرابی موهوم

چشم بد دور که بی مطرب و می مدهو شویم

(حافظ)

Ma'qul amallardan yuzaga keladigan va shahodat (ko'rishlik, guvohlik) bilan tugaydigan ilohiy ma'rifatga aytiladi.

(مرآت عشاق)

Hofiznomada لاله shunday izohlanadi:

Lola O'sha qora dog' shoirlar tilida dog'ga nisbatan qo'llanib shundan mazmunlar yasashgan. Lola Hofiz she'riyatida uch tanish chehraga ega, shulardan

1) Shahodatning zuhur bo'lishi, bu ramz hanuz ham tirikdir.

⁸⁶ نوربخش، دکتر جواد. فرهنگ نوربخش «اصطلاحات تصوف» 2. چاپخانه تهران. 1377. ص 143

Lolaning shahidga va shahidning lolaga tashbehi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

2) Dog'li yoki shoronaroq aytadigan bo'lsak, azaliy ishqdan dog'li yoki ishq azaliyligidan dog'li

Irfoniy adabiyotda, marifatlarni mushohada qilishar ekan Lola deyishadi. Va yana oshiqni hajrda dog'da qoldiradigan (dog'li qiladigan) mahbubning gulgun yuziga kinoyadir⁸⁷.

بنفشه

Idrok quvvati imkoni yetmaydigan holatga aytiladi.

(لمعات عراقی)

Bashar idroki notavon holatga aytiladi va uning tuguni o'y va fikr bilan yechilmaydi.

باغ از خط خوب لب شیرینش خجل شد

کو هیچ بنفشه شکر آلوده ندارد

(مرآت عشاق)

tajallilar, ko'rinuvchi va harakatdagi . Jannati na'im sifatii tajallilarga ishora bo'lgan edi. روح و ریحان:

(مرآت عشاق)

نسرین

Ahdiyatdan yuzaga kelgan vohidiyatdir

(لطیفه غیبی)

سجادی. ج. فرهنگ اصطلاحات و تعبیرات عرفانی. تهران. طهوری. 1370 ص. 682.⁸⁷

(شجره) درخت

Komil inson haqiqatni o'zida jam qilganligi yuzasidan u daraxtga ramz qilinadi. Uning asl yerda, uning kamoloti osmonlarda. Uning ruhoniyl haqiqatlari uning shoxlaridir.

(تعريفات جرجانی)

Daraxt insoniyat haqiqatidir. Rabboniy zot va uning sifatlarining tajalli qiladigan joyidir.

در آ در وادی ایمن که ناگاه

درختی گویدت انی انالله

(شرح گلشن راز – لاهیجی ص 57)

Daraxt Ibn Arabiylga ko'ra ikki ma'noga ega:

Komil inson

Ibn Arabiyl daraxt ramzini “kun”(“ilohiy yaratilish uchun berilgan “bo'l” buyrug'i) uchun ishlatadi va “kuniya”(barcha “bo'l” buyrug'i ostida bo'lganlar, ya'ni barcha maxluqotlar)ning bir necha martabalari uchun daraxt ramz qilib oladi. Bundan u shunday xulosa chiqaradi. “kun” va borliqning barcha bosqichlari daraxtning yordami bilan chiqadi: olam malak, olame malakut, olam jabarut, arsh, nuri Muhammadi (s.a.v.)(المعجم الصوفی – ابن عربی ص 644)

Gulning tasavvufiy ramzlari.

گل ramzi ma'nolarini tadqiq qilganimizda ularni mutlaq qaror deb qabul qilmaslik kerak, faqat nisbiyl qarashlardir.

گل gulning o'zi tasavvufiy lug'atlarda:

Dilda paydo bo'ladigan ilm natijasidir

(لمعات عراقی) ⁸⁸– deyiladi.

Biz “gul” tasavvufiy ma'nosini lug'atlardagi ta'rifini o'rganib Hofiz g'azallari misolida o'rganishga harakat qildik.



Yoshlik davri ravnaqi endi bo'stonda

Xushovoz bulbulga gul xushxabari kelmoqda

Forsiy g'azaliyotda bulbul va gul – oshiq va ma'shuqa timsolidir. Bu baytda gul – **yor, ma'shuqa** ma'nosida.

Hofiz ijodida g'azalning asosiy obyekti ma'shuq (dunyoviy ma'shuqa) nafaqat **ma'bud** (ilohiy ma'shuqa , Xudo) bilan ajralmas holda bog'lanadi, balki an'anaviy qasida obyekti bo'lmish – **mamduh** (madh qilinayotgan)ni ham ifodalaydi⁸⁹.

Tasavvufiy terminologik lug'atlarda yor quyidagicha sharhlanadi:

یار- shuhud olami, ya'ni **haq zotini mushohada qilishga** aytiladi⁹⁰

Biz yorimizni ko'p talab qilishga ne hojat, jonimizning muannasi biz uchun yetarlidir.⁹¹

Shahvat va nafs xohishlariga, nafsga huzur bo'ladigan barcha narsalarga nisbatan aytiladi, (لمعات عراقی)

So'fiylarga ko'ra har qanday shahvat va nafs orzulariga aytiladi.

(کشاف اصطلاحات الفنون)

Nafsoniy shahvatlar va hayvon tabiati darajasidagi hirslar (مرآت عشاق)

⁸⁸ نوربخش، دکتر جواد. فرهنگ نوربخش «اصطلاحات تصوف» 2. چاپخانه تهران. 1377. ص 108

⁸⁹ Рейснер М.Л. o'sha asar C.8.

⁹⁰ تھانوی کشف 1543، 1564؛ عراقی، اصطلاحات.

⁹¹ سجادی. ج. فرهنگ اصطلاحات و تعبیرات عرفانی. تهران. طهوری. 1370 ص 666

۶ روی جانان طلبی آینه را قابل ساز
ور نه هرگز گل و نسرين ندمد ز آهن و روی (485)

Jonon yuzi istasang oyinani to'g'irla

Yo'qsa hargiz temir va birinj (bronzadan) gul va nasrin o'smaydi

Baytdagi “jonon yuzi”, “oyna”, “gul va nasrin”, “temir va berenj” ramziy timsollardir. “Ruyi jonon” – “gul-u nasrin” haq tajallisi, “oyna” va “temir va berenj” ko'ngil timsolidir. **Tajalli** erishmoq istasang ko'ngling oyinasini to'g'irla, qalb-ko'ngil Alloh jilvagohidir, agar ko'ngil metal bo'lsa undan gul-o'smaydi. Ko'ngling kir bo'lsa, Alloh tajalli qilmaydi

۲ من اگر خارم و گر گل چمن آرای هست
که از آن دست که او می کشدم می رویم (380)

Agar men tikan bo'lsam va agar gul chamanoro bo'lsa,

U uzatgan qo'ldan men o'saman

Bu yerdagi gul ramzi murabbiyga dalolat qilishi bilan birga piri murshidga ham dalolat qiladi. Chunki tasavvufda pirsiz sayr-u suluk amalga olshirilmaydi. Muridning darajaga yetishishi **murshid** vositasi ila bo'ladi.

۷ گل عزیز است غنیمت شمیریدش صحبت
که به باغ آمد از این راه و از آن خواهد شد (164)

Gul azizdir suhbatin g'animat biling

Bog'ga bu yo'ldan keldi, undan ketadi.

Aziz gul - Avliyolarni aziz-**avliyolar** deb yodga olish an'anasi xalqimizda azladan mavjud. Soliklar esa umri davomida safar qilib azizlar bilan uchrashishi va suhbat haqiqatga erishishning muhim jihatlaridan biridir.

۷ هر گل نو که شد چمن آرای
ز اثر رنگ و بوی صحبت اوست (56)

Har yangi gul chaman bezagi bo'ldi

Bu uning suhbatı rang-u bo'yidan bo'ldi

Bu **yo'lga yangi kirgan solik** ustozı suhbatı bilan haqiqatga – chaman bezagıga yetishadi.

۱ شکفته شد گل حمرا و گشت بلبل مست
صلای سرخوشی ای صوفیان باده پرست (25)

Qizil gul ochildi va bulbul mast bo'ldi

Sarxushlik qichqirig'i, ey bodaparast so'riylar

Bulbul – oshiqning **mast** bo'lishi bu, yor – Allohning murid qalbida jilolanishi.

۲ در این چمن گل بی خار کس نچید آری
چراغ مصطفوی با شرار بولهیست (64)

Bu chamanda hech kim tikansiz gul termadi

Mustafo chirog'i Abulahab yomonliklaridandir.

Bu yo'lda riyozatsiz **yor vasliga**, **Alloh vasliga** erishilmaydi, hatto payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v.) ham islom “nurini taratishi”da Abulahabning ham yomonliklari sababchi bo'lgan. Hatto buyuk hayot dastur kitobi “Quron”da ham odamlarni hidoyatga kirishlari uchun shu nomda sura nozil bo'lgan. (111 – sura)

Chalisova va Reysner fors adabiyotidagi an'ana bo'lib ketgan bu uslubni shunday ta'riflashadi:

Hallojni toshbo'ron qilishayotgan vaqtda uning hammaslagi Shibliy, tosh o'rniga atirgul otishi haqidagi naql (hikoya)da aytilishicha, tosh bo'roni ostida qolsa ham un chiqarmagan shayx (Mansur Halloj) otilgan atirgulga faryod soldi. Ular kechirimli, chunki bilmaydilar – javob berdi Halloj – uning yuzidan manga og'ir keldi, chunki u tashlamaslik kerakligini biladi”.

Attorning bir g'azalining (devon, 1980, 239-b) 6-baytda atirgul haqida eslanadi:

۶ من چه کردم چو چنین خواست چنین باید بود
گلم آن است که او در ره من خار نهاد (154)⁹²

“Men u xohlagandek yo'l tutdim va shunday bo'lishi kerak atirgul shunda tikanlari bilan yo'limni to'sdi.

Bunda an'anaviy obrazlar atirgul oshiq va xor (tikan) unga olib boradigan yo'ldagi qiyinchiliklar, qo'llanilgan, ammo yuqorida keltirilgan tazkira hayotiy lavhasida oppozitsion juftlikni xorخار ning kamroq ishlatiladigan ma'nosi – “juda qattiq tosh, granit” (yana خاراxoro)ni esga soladi. Shuning uchun, bizningcha bayt obrazi o'ziga yanada chuqurroq, muallifga oid individual ma'noni o'z ichiga oladi: “Atirgul mening yo'limni eng qattiq toshlar bilan to'sdi”

Bunday baytni qo'shimcha varianti bilan o'rganishni, tazkiradagi shayxni tosh bo'ron qilish bevosita jazo marosimining boshlanishidan oldin kelgani kabi yuqoridagi g'azalda atirgul eslatilgan bayt bevosita “ana-l- haq” va jazo maydoniga chiqish haqidagi motiv ifodalangan baytdan oldin keladi⁹³. O'lim Halloj uchun Me'roj – Alloh vasliga yetishish edi. Uning tosh bilan toshbo'ron qilinishi orqali ifodalanayotgan hayotda uchragan to'siqlar orqali endi u Alloh vasliga erishmoqda.

⁹² Attar, Фарид ад-Дин. Диван. Под. Ред. М. Дервиша. Тегеран, 1980. С. 239

⁹³ Рейснер М.Л., Н.Ю. Чалисова «Я есмь Истинный Бог»: образ старца Халладжа в лирике и житийной прозе Аттара с. 138-141

۱ دوستان وقت گل آن به که به عشرت کوشیم
سخن اهل دل است این و به جان بنیوشیم

(376)

Do'stlar gul vaqtida ishrat qilishga intilish yaxshidir

Bu dil ahli gaplardir, jonimiz bilan ichaylik

Ilohga **zikr** vaqtida ixlosli zikrga tirishaylik, ahli dil gapidir bu.

So'fiyona birodarlik, jamoat bo'lib zirk tushish yoki meditatsiya qilish, Sanaida bir talay obrazlar vositasida namoyon bo'ladi: majlis (majlis), bazm (bazm), jamoat, to'garak (xalqa, maxfal). Zikr tushishni xushchaqchaq bazmga yoki musiqiy-badiiy majlislarga o'xshatish so'fiyona g'azalda musiqachi va ashulachi obrazini, musiqiy asbob nomlari va eroniy mumtoz kuy ohanglarga to'ldirib tashlashiga sabab bo'ldi.⁹⁴

۵ رخ برافروز که فارغ کنی از برگ گلم
قد برافراز که از سرو کنی آزادم

(316)

Jamolingni ko'rsatib gul bargimdan forig' qil

Qad ko'targin sarvdan ozod qilgin.

Jamolingni ko'rsatgin, asliy o'zligiga erishish⁹⁵ uchun to'siq bo'luvchi **nafsiy** sifatlardan forig' qil

Qaddingni ko'tar tanamdan-o'zimdan ozod bo'lay.

۶ در کار گلاب و گل حکم ازلی این بود
کاین شاهد بازاری وان پرده نشین باشد

Gulob va gul ishida azaliy hukm shu edi:

Bu bozor shohidi bo'lishi-yu, unisi pardaneshin (g'uncha shaklida)

Bu baytda azaliy qoidaga ko'ra **sir**, **haqiqat** pardalar ortidadir, ammo unga olib boradigan yo'llar haqida bildirilgan.

⁹⁴Рейснер М.Л. Эволюция классической газели на фарси (X-XIV века).М.: Наука. 1989.с. С.136

⁹⁵ Usmon T. Tasavvuf tarixi. Toshkent. Istiqlol. 1999. 82-b.

Demak, gulga oid tasavvufiy ma'nolar deya quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- ✓ Dilda paydo bo'ladigan ilm natijasidir degan ma'nodan tashqari:
- ✓ **Yori mutlaq, ma'bud**
- ✓ **yo'lga yangi kirgan solik**
- ✓ **murshid**
- ✓ **avliyo**
- ✓ **tajalli**
- ✓ **Alloh vasli**
- ✓ **sir, haqiqat**
- ✓ **zikr**
- ✓ **nafs**

Navoiy aytganidek, Sheroziy – alar lison-ul g'ayb va tarjimon ul-asrordurlar...⁹⁶

Bundan ko'rinib turibdiki, گل so'zi irfoniy lug'atlar yuz foiz ma'nolarini ifodalab berolmasiliga guvoh bo'lmoqdamiz. Ma'nolardan ancha ko'proq shoirning o'ziga xos lug'at tarkibi borligidan dalolat beradi. O'simliklarga oid ma'no qirralarini o'rganish sharqshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir.

Hofiz Sheroziy g'azallaridagi o'simlik obrazlari va ularning ma'nolari rang barangdir. Mazkur ishimiz bu yo'lga qo'yilgan ilk qadamlardir.

Xulosa.

⁹⁶Alisher Navoiy. Asarlar. T.15.-T.: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1966. 21-b

- ✓ Xo'ja Hofiz Sheroziy ijodi nafaqat eroniy xalqlarni, balki turkiy adabiyot muxlislarini ham doimo o'ziga jalb etib kelgan.
- ✓ Hofiz Xorazmiy singari zabardast o'zbek shoilari uni ustoz deb tan olgan edilar.
- ✓ Hofiz she'riyatining ilmiy talqinlari ham o'sha davrlardan boshlangan bo'lib, aayniqsa, turkiy she'riyat sultoni Alisher Navoiy bu masalada jiddiy mulohazalarni bayon etganligi ma'lum
- ✓ Uning ijodini o'rganish undan keyingi forsiyzabon va turkiyzabon she'rlarning ma'nolarini to'liq anglab yetishimizga ko'maklashadi.
- ✓ Avvaldan ma'noga ega bo'lgan til birliklari badiiy asarning lisoniy to'qimasini shakllantirar ekan, ular ijodkorning badiiy mahoratiga uyg'un ravishda yana yangi, o'ziga xos badiiy ma'no- mazmunlarni inkishof qiladi
- ✓ Badiiy uslubning **namoyon bo'lishi tarzida** o'rgansh ham muhim va zaruriy yo'nalish bo'lib, unda, ta'bir joiz bo'lsa, **tirik tilning o'ziga xos, yozuvchining individual mahorati** mahsuli sifatidagiva ayni paytdauning **"men"**i ham o'z ifodasini topgan **harakati ekanligi**
- ✓ Badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisadir
- ✓ G'azal mazmunini idrok etish uchun bundan tashqari ayni paytda badiiy matnning o'ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo'ladi
- ✓ Badiiy tafakkurda esa ijodiy fantaziya badiiy butunlik yaralishi jarayonining qudratli harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi, bu fantaziya konkret va ayni paytda ko'p ma'noli obrazlar va ramzlarning tug'ilishiga olib keladi

- ✓ Simvol – obrazli tafakkur mahsuli. Ramz o'xshatish, istiora (q. metafora) ning o'ta barqarorlikka, hamma tomonidan bir xil tushunilishiga erishish oqibatida yuzaga keladi
- ✓ Matn turlari xilma xil, ammo asar bir qancha turini birdaniga ifoda etadi yozuvchining yaxlit estetik maqsadi uchun asosiy matn bilan bir qatorda intermatn sifatida olib kiritilgan qismgina emas, balki hatto bu qismning butun shakli ham ishga tushadi. Shuning uchun ko'pincha muallif asosiy matn ichida u yoki bu tarzda mazkur manbani bildirishga harakat qiladi.
- ✓ Badiiy matnda muallifning asosiy gapi yashirin, turli ishoralar vositasida, obrazlar, ko'chimlar, tagma'nolar kabi badiiyatning o'ziga xos unsurlari orqali beriladi
- ✓ Galperin matnda ifoda topgan informatsiyaning pragmatic maqsadiga ko'ra uch turli degan:
 - a) mazmuniy-faktual informatsiya,
 - b) mazmuniy-konseptual informatsiya
 - c) mazmmuniy-tagma'noli informatsiya va buni biz g'azallardagi so'fiyona g'oyalar sifatida ko'rishimiz mumkin.
- ✓ O'simlik ramz birliklarini ham mavzu turkumlariga bo'lishimiz mumkin
- ✓ Aniq faktlarga asoslanadigan Hofizning haqiqiy biografiyasi uning o'zi tomonidan qilingan qaydlar mavjud emas. Uning hayoti haqidagi biz biladigan barcha ma'lumotlar tazkiralalar orqali yetib kelgan (bu tazkiralardagi ma'lumotlar ham ko'pincha biri biridan ko'chirib kelingan) - bu bir qancha naqlar ham, og'izdan og'izga o'tib kelgan

- ✓ Hofiz o'tmishdoshlaridan unumli foylangan, ammo u ulardan ko'chirmagan yuksaklarga olib chiqqan
- ✓ XIII va XIV asrlarda g'azal o'ziga xos rivojlanish cho'qqisiga yetdi
- ✓ Hofiz faxriyalari o'ziga xos.
- ✓ Hofiz g'azallarida ham falsafaga oid masalalar ham ko'tariladi
- ✓ Falsafa, din va fanning o'zaro hamkorligini ta'minlash uchun har bir inson ma'naviy hayotining asoslari, tomonlari, madaniyatining shakllari ekanligini tan olish kerak. Ularning qaysi biri ahamiyatli degan savol qo'ymay, har birining o'z o'rnini va vazifasi bor ekanligini, ular birisiz ikkinchisi yashashi mumkin emasligini ko'rsatish
- ✓ Ramz she'rga tushgandan keyin, o'z hayoti bilan yashay boshlaydi va turli ramziy ma'nolar kasb qiladi
- ✓ Kam qo'llanilgan o'simlikka oid lug'aviy birliklar kam uchraydiganlar asosan, o'z ma'nosida qo'llanilgan
- ✓ 10dan kam ishlatiladigan lug'aviy birliklar soni 15 tadir.
- ✓ 10dan ko'p 100dan kam bo'lgan o'simlikka oid lug'aviy birliklar 13 tadir.
- ✓ Ba'zi lug'aviy birliklar bir ramziy ma'no, ba'zilari ikki va undan ortiq ma'no anglatishi mumkin ekan.
- ✓ Daraxt mavzu turkuimidan ko'rinadiki bu asosan yor qomatiga oid ramzlarni beradi.
- ✓ گل obraz sifatida Hofiz Sheroziyga qadar ham forsiy she'riyatda o'zining ma'lum g'oyaviy-badiiy ko'lami va salmog'iga ega bo'lgan. Hofiz Sheroziy

ijodi orqali esa bu obrazning vazifa va darajasi nihoyatda yuksalgan.

She'riyatning yetakchi mazmunini ta'minlovchi asoslardan biriga aylangan.

- ✓ گل obrazi tabiatning beshinchi unsuri sifatida Hofiz talqinida.
- ✓ گل ramzining, Hofiznomalar va lug'atda yozilganlaridan ko'ra ancha ko'proq ma'nolarni qamrab olishiga guvoh bo'ldik.
- ✓ Forsiy adabiyotda g'azalchilik tasavvufiy va dunyoviy yo'nalishda rivojlanib, Hofiz o'z ijodida ana shu ikki oqimni birlashtiradi
- ✓ Shoir ramzlarning hayotiy va ilohiylik ehtiyojlarini bir-biridan ajratmagan.
- ✓ Hofiz lirik qahramon ruhiy dunyosi, ichki olamini yoritishda gul tasvirlariga keng tayangan. Inson tabiat, jamiyat haqidagi falsafiy fikrlarini ham o'simlik obrazi orqali ifodalagan.
- ✓ Shayxlar samo' uchun ramziy sharhga imkon beradigan she'rlariga tanlashlari lozim bo'lgan
- ✓ Ramzlarning tasavvuf adabiyotida termin darajasiga ko'tarilishi.
- ✓ Ularni o'rganish bugungi kunda ham dolzarb
- ✓ Ulug' shoir g'azallariga g'oyaga mos obraz tanlab, ma'no tuyg'u va tasvir uyg'unligini qo'lga kiritgan. Tashbeh (o'xshatma), istiora (metafora) san'atlaridan ramzlar mazmun-mohiyatini, hissiy ruhiy nufuzuni takrorlanmas rang va ohanglarda ko'rsata olgan. Shuningdek, Hofiz ramzlar tasvirida inson ichki kechinmalari, dard va iztiroblarini qanchalik mukammal bilib ish yuritganligini ham to'la namoyish etishga erishgan.
- ✓ O'simliklar obrazi va tasvirlarida forsiy va shu orqali butun jahon she'riyatida, jumladan o'zbek she'riyatda o'ziga xos ijodiy an'ana

yaratilgan. Albatta, bunda Hofiz Sheroziyning xizmati beqiyos bo'lgan.

Uning she'riyatidagi ko'ngil obrazi va tasvirlari keyingi davr ijodkorlari uchun maktab vazifasini o'tagan.

- ✓ Lug'atlarni jalb etish va lozim hollarda tegishli leksemalarni tasavvuf istilohlari lug'atlari tarkibiga kiritish bo'yicha xulosalar tayyorlash yo'llari bilan davom ettirish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. G'afur G'ulom. Toshent. 2001
 2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. Toshkent. O'zbekiston.1996
 3. Alisher Navoiy. Asarlar. T.15.-T.:G'.G'ulojm nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1968
 4. Azimov M. Hofiz Sheroziy va o'zbek adabiyoti. Toshkent. Minhoj. Tehron-Toshkent.2004
 5. Bo'riyev O. Tasavuf tarixi fanidan ma'ruzalar matni. T.:ToshDSHI.2000
 6. Doniyorov X. Mirzayev S. So'z san'ati. – Toshkent: O'zadabiynashr. 1962
 7. Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.-Toshkent. O'qituvchi. 1983
 8. Karimova S.U. IX-XI asr kimyo va dorishunoslik fanlari taraqqiyotida markaziy Osiyo olimlarining o'rni. Toshkent.2002.FTDK LITAF.
 9. Mirzoyev A. Foniya va Hofiz// Navoiy va adabiyot ta'sir masalalari (maqolalar to'plami). – Toshkent. 1968.
 10. Ochilov E. Hofiz Sheroziyning Ishq Gavhari (G'azallar, soqiynoma, tarje'band, qit'alar, ruboiylar). – Toshkent: Sharq.
 11. Quronbekov A. Hofiz asrorining yetti pardasi. Toshkent. 2006.12
 12. Quronbekov A. Ruboiylar jozibasi. Sino. 2006 kuz. 23-son.
 13. Quronbekov A. Tasavvufiy istilohlar. Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi. Toshkent. TDSHI. 2010.
 14. Rahimov I. O'tamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari.(Fan falsafasi) Toshkent 2002.
 15. Shomuhamedov Sh. Hofiz Sheroziy. – T.: Fan. 1965
 16. Shimmel A. Jonon mening jonimda. Islom olamida xotin-qizlar siymosi. T.:Sharq. 1999
 17. Usmon T. Tasavvuf tarixi. Toshkent. Istiqlol. 1999
 18. Yo'ldoshev M. badiiy matn lingvopoetikasi. Fan. Toshkent. 2008
 19. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005
- CHET TILIDA YOZILGAN ADABIYOTLAR:
20. Айний К. Хофиз ва «тарзи сухани Хожу» // Жашинномаи Хофиз. Мажмӯа. – Душанбе, 1971
 21. Аттар, Фарид ад-Дин. Диван. Под. Ред. М. Дервиша. Тегеран, 1980
 22. Баевский С.И. Ранняя персидская лексикография XI – XV вв. М. Наука. 1989
 23. Бакиева Г.Х. Лингвистические основы анализа художественного текста автореф. Дис...д-р. Фил. Наук. – Ташкент, 1993
 24. Брагинский И.С. Очерк о Хафизе, его эпохе и творчестве. – из истории персидской и

- таджикской литературы. Сталинабад, 1956.
25. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М. Высшая школа, 1981
 26. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М., Высшая школа, 1991
 27. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981
 28. Квятовский А., Поэтический словарь, М., 1966
 29. Курбон Восеъ. Ойини ринди ё маслаки Хофиз. Душанбе:Ирфон, 1991.
 30. Персидско-русской словарь.2 том. Под ред. Ю.А. Рубинчика. Советская энциклопедия. Москва – 1970
 31. Рейснер М.Л. Эволюция классической газели на фарси (X-XIV века).М.: Наука. 1989
 32. Рейснер М.Л., Н.Ю. Чалисова «Я есмь Истинный Бог»: образ старца Халладжа в лирике и житийной прозе Аттара . Семантика образа в литературах Востока. Сборник статей. Москва. Восточная литература.РАН. 1998
 33. Ржевская Н.Ф. О семиотических исследованиях в современном французском литературоведении // Семиотика и художественное творчество. – М.: Наука, 1977
 34. Садои Шарқ. Душанбе: 1971.№4.
 35. Сусперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 1989
 36. Тимофеев Л. И. , Основы теории литературы, М., 1968
 37. Феддеров А.И. Образная речь. – новосибирск. Наука, 1985
 38. Шульская О.В. О символе в поэзии А. Межироа и У. Винокурова//лингвистика и поэтика. – М.: Наука. 1979
 39. Shimmel.A.Hafiz and his critics.Studies in Islam. Quarterly Journal of the Indian Institute of Islamic Studies. Vol 16.1979
 40. تهنوی کشاف ؛ عراقی، اصطلاحات. 1543.1564
 41. خرمشاهی، بها الدین. حافظنامه. شرح الفاظ، مفاهیم کلیدی، و ابیات دشوار حافظ. بخش 1. شرکت انتشارات علمی و فرهنگی. تهران، 1385
 42. دیوان حافظ. محمد قزوینی و دکتر قاسم غنی. تهران. تهران
 43. دیوان حافظ، به تصحیح و توضیح پرویز ناتل خانلری، ج 3
 44. سجادی. ج. فرهنگ اصطلاحات و تعبیرات عرفانی.تهران. طهوری. 1370
 45. سجادی.تصوف و عرفان. تهران. تهران 1380
 46. فرهنگ معین. www.hadisystem.ir انتشارات معین(programm_)
 47. نوربخش، دکتر جواد. فرهنگ نوربخش «اصطلاحات تصوف» 2 . چاپخانه تهران.1377

Saytlar:

48. books.google.com	49. ru.wikipedia.org
50. scholar.google.com	51. ziyonet.uz

